

## KIRISH

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi.** Jamiyatimizning har bir a'zosi, har qanday mutaxassis, zamon bilan hamqadam har qanday kadr, eng avvalo, o'z ona tilining sadoqatli sohibi bo'lmog'i lozim. Ona tiliga chinakam sohib bo'lmoqning bosh sharti esa uning tuganmas imkoniyatlarini tugal egallamoq, ya'ni fikrni mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmoqdir. Buyuk bobomiz Alisher Navoiy ham "O'zim sori boqma, so'zim sori boq", deya bejiz aytmagan.

Bizga ma'lumki, hozirgi davrda Vatanimiz jahon hamjamiyatiga dadil qadamlar bilan kirib bormoqda va o'zining mustahkam o'rnini egallamoqda, bu borada zamonaviy bilimlarga ega malakali kadrlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Aynan shu sababdan mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq davlatimiz tomonidan ta'lim va tarbiyaga alohida e'tibor qaratildi. Bu sohada ham tub o'zgarishlar va islohotlar amalga oshirildi. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va "Ta'lim to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli, chuqur bilimli, vatanparvar, keng mushohadali, buyuk davlatni barpo etish yo'lida ijodkor va faol qilib tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan ekanligi belgilab olindi.

Ta'lim sohasida fan asoslarini egallash ko'p jihatdan, ona tili ta'limining qo'yilishiga bog'liq. O'quvchilar tilga oid bilimlarni, asosan, dars jarayonida o'rganadilar.

Har bir ona tili o'qituvchisi o'quvchilarga grammatika bo'yicha puxta bilim berishi bilan birga, ular to'g'ri og'zaki va yozma nutq malakalarini hosil qilishi, olingan bilim hamda ko'nikmalarini turmushga tatbiq etishga o'rgatishi ham lozim. Bu o'qituvchidan faqat o'qitishning mazmuninigina emas, uning metodlarini, o'quvchilarning mustaqilligi va tashabbuskorligini oshirishni talab qiladi.

"Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlari"da ta'kidlanganidek, ta'lim formalari, metodlari va vositalarini takomillashtirmasdan turib, ko'zlangan maqsadni amalga oshirib bo'lmaydi.

Faqat ona tilini o'rgatish orqaligina yoshlarni puxta savodxon qilish, ularga fan asoslarini singdirish, ularning madaniy rivojlanishini ta'minlash mumkin. "Ona tili,- degan edi ulug' pedagog K.D.Ushinskiy,- har qanday taraqqiyotning asosi, butun bilimlarning xazinasidir. Har qanday tushunish undan boshlanadi, u orqali o'tadi va unga qaytadi".

O'quvchilarga ona tilidan beriladigan bilimlarni mukammal bo'lishini esa darsdan tashqari ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Pedagogikada darsdan tashqari mustaqil ishlar muammosi juda uzoq tarixga ega. O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish K.D.Ushinskiy pedagogik tizimining asosiy muammolaridan biri edi. U tarbiyachi o'z shogirdlarining darsdan tashqari ishlariga ko'proq imkoniyat yaratib bermog'i, o'quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishan ko'ra, uning o'ziga xulosalar izlashni o'rgatmog'i kerak, —deb ta'kidlagan edi: "Grammatik qonun- qoidani o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'zi kuzatishini va xulosalashini istardik, o'quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat".<sup>1</sup>

Ta'limda faollik va mustaqillik muammosi bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'langan pedagogik kategoriyalar hisoblanadi. Har qanday aktiv faoliyat asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Darsdan tashqari mustaqil ishlarsiz hech qanday faol faoliyat bo'lmaydi. Ammo bu faollik va mustaqillik bir xil tushuncha ekan, degan fikrga olib kelmasligi kerak. Faollik mustaqillik tushunchasiga nisbatan ancha kengroq sohani o'z ichiga oladi. Faollik to'g'risida gapirganda, o'qituvchi tushuntirishi, ma'ruzani diqqat bilan tinglash, turli xil vositalar: ko'rgazmali qurol, darsdan tashqari ishlar yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faollik bilan ishtirok etish, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish kabilar tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot sohasida bo'lmasin, kishining ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlatiladi. Darsdan tashqari o'tkaziladigan mustaqil

---

<sup>1</sup> Она тили дидактикаси. Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. - Б.188

ishlar o'quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Kishi mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallaydi. Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi. Darsdan tashqari tashkil etiladigan ishlar o'quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantiradi, fikrlash qobiliyatini oshiradi.

Umumta'lim predmetlaridan biri sanalgan "Ona tili" fani o'quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarning til hodisalarini kuzatish, tahlil va qayta qo'shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarni o'stiradi. Biz ushbu ishimizda ona tili darslari va sinfdan tashqari o'tkaziladigan mashg'ulotlarga diqqatimizni qaratgan holda, asosiy urg'uni umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida onomastik materiallardan foydalanish usullarini o'rganishga yo'naltirdik va albatta oliy ta'lim sohasida bu borada qilanayotgan ishlarga ham kerakli o'rinlarda to'xtaldik. Chunki, bizga ma'lumki, atoqli otlar juda keng va turli-tuman doiradagi narsalar, hodisalar va tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Shu bilan birga ular juda ko'p fanlarning turli qirralari bilan jips bog'langandir. Hozirgi zamonimiz uchun o'ta dolzarb bo'lgan - onomastik materiallarning umumta'lim maktablarida, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'qitish, ta'lim berish bilan bog'liq muammolar va bu muammoning qator noaniq masalalari ham borki, ular maxsus va jiddiy tadqiqot olib borishni talab qiladi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** Mavzuni ishlashdan maqsad Respublikamiz xalq ta'limi tarmoqlarida hozirgi kunda o'qitilayotgan fanlar mazmuniga kiritilgan onomastik materiallarning umumiy leksikaga nisbatan hajmini o'rganish, sinflar bo'yicha tadqiqotlarni aniqlash, o'qitilish yo'llarini o'rganish, shular xususidagi ilmiy - nazariy, metodik -uslubiy

asarlarni o'rganib, materiallarni ilmiy tahlil qilish, shu asosda onomastik ta'lim maqsad va vazifalarini, mazmuni va hajmini, o'qitish usullari va vositalari, mashg'ulot shakllari bo'yicha tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Ana shu maqsaddan kelib chiqadigan vazifalar:

- umumta'lim maktablari (qisman oliy o'quv yurti) fan o'qitilishini kuzatish, tahlil qilish, darslarning borish jarayonini, o'quvchi-o'qituvchi faoliyatini qayd qiluvchi materiallar to'plash;
- eksperiment va nazorat mashg'ulotlari tashkil qilish, bevosita qatnashib, stenogrammasini yig'ish;
- ishlab chiqilgan tavsiyalarni sinab ko'rish, mutaxassislarning maslahatlarini inobatga olib, yangi takliflar kiritish.

**Tadqiqotning metodologik asoslari, metodi va materiali.** Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning qadimiy qadriyatlarimizga, qadimiy joylarga va ularga qo'yilgan nomlarga bo'lgan chuqur hurmat va ehtiromi, milliy merosimizdan faxrlanish g'oyasi va ularni ta'lim jarayonida yoshlarga singdirish ushbu magistrlik dissertatsiyamiz uchun metodologik asos hamda yo'nalish bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot ishimizning oldiga qo'yilgan asosiy maqsadga erishish va uni amalga oshirishda turlicha, jumladan, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy, tavsifiy, etimologik metodlarga murojaat qilindi. Ishimizning mazmunini to'la ochib berishda o'zbek tili onomastikasi va shevashunoslik bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar: E.Begmatov, Z.Do'simov, T.Nafasov, S.Qorayev, H.Hasanov, O.Madrahimov, A.Ishayev, M.Bo'ronov, Y.Jumanazarov, X.Boboniyozov, A.Otajonova, A.Primov, xorijlik A.Superanskaya, Steblin-Kamenskiy, S.Tolstovlarning ishlarida ilgari surilgan g'oyalar, asosiy fikrlar, qarashlar va ilmiy-ommabop asarlar tashkil qiladi.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati.** O'zbek nomshunosligi haqida yaxlit nazariy fikr bildirilishi, keyingi yillarda paydo bo'lgan o'zgarishlarning qayd qilinishi ta'lim jarayonida nomlarning mukammal lug'atini tuzish bo'yicha muhim manbalardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Ilmiy ishning materiallari tarix, tilshunoslik, din va siyosatshunoslik kabi

sohalar bilan shugʻullanuvchi mutaxassislarga nazariy va amaliy manba sifatida xizmat qilishi, oʻquv yurtlari oʻqituvchilari, talabalar va oʻquvchilar uchun oʻtmish merosimizdan bugungi maʼnaviy ehtiyojlar uchun foydalanishda ham qoʻl kelishi mumkin. Tadqiqotning yanada muhim ahamiyati shundaki, u qimmatli ilmiy xulosalar chiqarishdan tashqari, xalqimizning, ayniqsa, yosh avlodning buyuk oʻtmishimizga, boy tariximizga, betakror maʼnaviyatimizga chuqur hurmat bilan qarashiga, ularda elimizga boʻlgan iftixor tuygʻusini yuksaltirishga koʻmaklashadi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.**

- ona tili, adabiyot, tarix, geografiya mashgʻulotlarida onomastik materiallarni amalda oʻtish boʻyicha tavsiyalar koʻrsatildi;
- onomastik va toponimik toʻgaraklar mashgʻuloti tafsiloti va ish rejasi tavsiya qilindi;
- toponimik materiallar toʻplash boʻyicha savollar majmuasi tayyorlandi;
- «Qizil kitob» tuzish va yurgizish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

**Ishning joriylanishi.** Ishning asosiy mazmunini ochib berishga harakat qilingan ilmiy maqolalar Urganch davlat universiteti “Isteʼdod ziyosi” magistrantlar ilmiy ishlari va Buxoro davlat universiteti “Onomastika masalalari” ilmiy maqolalar toʻplamida chop qilingan 4 ta maqolada oʻz aksini topgan.

**Ishning tuzilishi.** Dissertatsiya kirish, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda uch bob, xulosalar, ishda foydalanilgan adabiyotlar roʻyxatidan iborat boʻlib, 86 sahifani tashkil etadi.

## I BOB. ATOQLI OTLAR TADQIQI

### I.1. Jahon va o'zbek tilshunosligida atoqli otlarning o'rganilish tarixidan

Tildagi atoqli otlarning xilma-xil xususiyatlari juda qadimgi davrlardan buyon turli soha olimlarining diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Masalan, qadimgi yunon olimlari Aristotel, Demokrit, Geraklitning asarlarida ham atoqli otlarning xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar bildirilgan edi. Jumladan, Aristotel "Poetika" asarida otni nutq bo'laklaridan biri deb hisoblaydi va unga quyidagicha ta'rif beradi: "Ot murakkab, ma'no anglatuvchi, zamonni bildirmaydigan, qismlari o'z-o'zidan ma'no anglatmaydigan so'zdir"<sup>2</sup>. Eramizgacha 1-asrda yashagan Yuliy Polluks "Onomastik" nomli atoqli otlarga izoh beruvchi lug'at yaratgan. Stoiklar, jumladan, Xrisipp atoqli otlarni alohida til birligi, so'zlar guruhi deb tasnif qilgan edi. Uyg'onish davrida va o'rta asrlarda (T.Gobbs, J.Lokk, G.Leybnis) hamda butun XIX asr davomida (J.Mill, X.Djozef va boshqalar) atoqli otlar, ularning til lug'aviy qatlamidagi o'rni masalasiga doir munozara davom etdi. Bu sohada eng muhim masala atoqli otlar qanday ma'no bildirishini aniqlashdan iborat edi. XVIII-XIX asrlar davomida bu muammo faqat tilshunoslar tomonidan emas, faylasuflar, mantiq olimlari tomonidan ham o'rganilgan. Bu muammoni o'rganishga yirik ingliz mantiqshunos olimi Djon Styuart Mill (1806-1873) juda ko'p kuch sarfladi. Uning talqinicha, atoqli otlar ma'no bildirmaydi, ular o'ziga xos belgilar, yorliqlar sifatida predmetni bilishga, uni boshqa predmetlardan farqlashga yordam beradi. Biror predmet, kishining nomi (atoqli ot) o'sha predmet yoki shaxs tavsifi uchun to'la asos bo'lolmaydi. O'z fikrlarini rivojlantirib, Mill so'zlarni ikki guruhga ajratadi: a) so'z-belgilar, b) xarakterlovchi (konnotatsiyalovchi) so'zlar. Konnotatsiyalovchi so'zlar atoqli otlardan keyin vujudga kelgan<sup>3</sup>.

Yana bir ingliz mantiqshunosi X.Djozef atoqli otlar haqida J.Millga qarama-qarshi fikrlarni bildirgan edi. Uning fikricha, atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan kengroq va ko'proq ma'noga egadir. Masalan, "*Palikur* (kishi ismi,

<sup>2</sup> Аристотель. Поэтика (поэзия санъати хақида). Русчадан М.Маҳмудов, У.Тўйчиевлар таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 41.

<sup>3</sup> Бу ҳақда қаранг: Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 56-58.

afsonaviy Eneyning hamrohi, yo‘ldoshi) *e’tibordan chetda qoldi*” gapi “*Inson e’tibordan chetda qoldi*” gapidan ancha mazmunliroqdir.

XX asrda atoqli otlar haqidagi mantiqiy yo‘nalishni mashhur ingliz faylasufi va mantiqshunosi Bertran Rassel (1872-1970) yanada rivojlantirdi. Uning fikricha, ma’lum makonda va zamonda atoqli otlar yordamida ifodalanuvchi ma’no turdosh otlarga nisbatan aniqroq, ilmiyroq xarakterga egadir. Bu jihatdan atoqli otlar *bu, o’sha, ana shu, ana bu* singari ko‘rsatish olmoshlariga juda yaqin turadi<sup>4</sup>.

Daniya tilshunosi Paul Kristofersen atoqli otlar bilan turdosh otlar orasidagi farqni ularning birinchisi aniq, konkret ma’noni, keyingisi esa mavhum ma’noni ifodalashida ko‘radi. Atoqli otlar individning, shaxsning bevosita ismi, nomi bo‘lsa, turdosh otlar bilvosita nomlardir. Turdosh otlar dastlab butun bir guruh, to‘da nomini bildiradi, keyinchalik bu nom konkretlashadi.

Ingliz tilshunosi Alan Gardinerning “Atoqli otlar nazariyasi” (1954) nomli asari onomastika fanini yangi bosqichga ko‘tardi. J.Millning atoqli otlarda ma’no yo‘qligi haqidagi fikrini rivojlantirib A.Gardiner atoqli otlar o‘ziga xos nomlar bo‘lib, predmet, voqea-hodisa haqida aniq, konkret tasavvurlar yig‘indisini o‘zida ifoda etadi. Bu jihatdan atoqli otlar ikkiga bo‘linadi: a) mujassamlanuvchi, timsol bo‘la oluvchi atoqli otlar va b) mujassamlanmovchi, timsol bo‘la olmovchi atoqli otlar. Masalan, *Vilyam Shekspir, Temza daryosi* kabi atoqli otlar mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular ma’lum bir shaxs (bu o‘rinda buyuk dramaturg) va geografik obyekt (bu o‘rinda daryo) haqida umumiy, yaxlit tasavvur beradi. Agar biz oddiygina qilib Vilyam desak, bu mujassamlanmovchi, kishi ismi haqida umumiy tasavvur beruvchi atoqli otni bildiradi. Tarixiy nuqtayi nazardan mujassamlanuvchi atoqli otlar oldinroq, avvalroq vujudga kelgan. Masalan, *Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur* kabi antroponimlar bu nazariyaga ko‘ra mujassamlanuvchi atoqli otlar guruhiga kiradi, chunki ular mamlakatimiz

---

<sup>4</sup> Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С. 58-59.

davlatchiligi tarixi, madaniyatida juda katta o‘rin tutgan mashhur shaxslar haqidagi timsollarni o‘zida mujassamlashtiradi. Ota-onalar o‘z bolalarini ana shunday mashhur shaxslarga o‘xshashini orzu qilib qo‘ygan *Temurbek, Ulug‘bek, Alisher, Bobur* kabi antroponimlar esa mujassamlanmovchi atoqli otlar sirasiga mansubdir.

Taniqli tilshunos M.I.Steblyn-Kamenskiy qadimgi island adabiyoti materiallari asosida onomastik leksikani mujassamlanish nuqtayi nazaridan o‘rganar ekan, island adabiyotida qo‘llangan onomastik leksikada umuman “mujassamlanish” hodisasi bo‘lmaganligini qayd qiladi. Uning fikricha, har qanday atoqli ot muayyan denotatni, ma’noni ifodalab kelgan<sup>5</sup>.

O‘z vaqtida T.Gobbs tomonidan ishlab chiqilgan atoqli otlarning “mujassamlanish” xususiyati haqidagi ta’limot keyinchalik G.Leybnis tomonidan yanada takomillashtirilgan edi. Nemis faylasuf olimi G.Leybnis fikricha, atoqli otlarda konkret va mavhum tafakkur elementlari ifodalangan bo‘ladi. Olimning bu fikri atoqli otlarni tilda (muloqotning belgili elementlari tizimida) va nutqda (bu elementlarning kommunikativ nuqtayi nazardan qo‘llanishida) olib qarash nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir<sup>6</sup>. Ana shunday qarashlar tufayli tilshunoslikda atoqli otlarga abstrakt-mantiqiy va konkret-tarixiy nuqtayi nazardan yondashuv vujudga keldi.

O‘z vaqtida J.Mill tomonidan asoslangan atoqli otlarda hech qanday ma’no elementi yo‘q, degan ilmiy qarash keyinchalik V.Bryondal, E.Boyssensom, L.Elmslev kabi taniqli tilshunos olimlar tomonidan rivojlantirildi. Natijada ayrim olimlar, jumladan, daniya tilshunosi Knud Togebyu atoqli otlar (jumladan, olmoshlar ham) semantik mazmunga ega bo‘lmaganligi uchun o‘zaro sinonimlardir. Shunga ko‘ra yakka individ, shaxs bir necha ismga, bir necha shaxslar esa bir umumiy ismga ega bo‘lishi mumkin (adashlar, familiyadoshlar: *Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Botir Zokirov, Erkin Yusupov* kabi biz bilmagan, biz uchun notanish boshqa shaxslar ham bor).

Bu fikrga teskari qarashlar ham mavjud, ya’ni atoqli otlar, so‘z bo‘lgani

<sup>5</sup> Стеблин-Каменский М.И. Древнеисландская топонимастика как материал к истории имени собственного // Стеблин-Каменский М.И. Спорное в языкознании. – Л.: Наука, 1974. – С. 105-106.

<sup>6</sup> Березин Ф.М., Головин Б.Н. Общее языкознание. – М.: Высшая школа, 1979. – С. 21-23.



uchun xuddi turdosh otlar kabi xilma-xil xususiyatlarga egadir. Bunday qarash o‘z vaqtida faylasuf-stoiklar tomonidan asoslangan edi, keyinchalik XIX asrda X.Djozef, J.Mill, XX asrda O.Espersen kabi olimlar tomonidan rivojlantirildi. Masalan, daniya olimi O.Espersenning ta’kidlashicha, “atoqli otlar turdosh otlarga nisbatan ko‘proq xususiyatlarga egadir. Atoqli otlar o‘zida juda ko‘plab belgi-xususiyatlarni konnotatsiya qiladi”<sup>7</sup>.

XX asrning 60-70 yillarida taniqli rus tilshunosi A.V.Superanskaya atoqli otlarning tilshunoslikda (ayniqsa, chet el tilshunosligida) o‘rganilish tarixi bilan maxsus shug‘ullandi hamda, «Atoqli otlarning umumiy nazariyasi» nomli yirik tadqiqotini e’lon qildi<sup>8</sup>. Shundan keyin V.A.Nikonovning “Ism va jamiyat” (1974), V.A.Karpenkoning “Atoqli va turdosh otlarni farqlashning nazariy asoslari” (1975), A.D.Zverevning “Atoqli va turdosh otlar haqida” (1976), I.I.Kovalikning “Ukrain tilida atoqli va turdosh otlar” (1977) nomli asarlari e’lon qilindi, “Atoqli va turdosh otlar” nomli alohida ilmiy to‘plam nashr etildi (1978). Taniqli olim A.A.Reformatskiy o‘z vaqtida atoqli va turdosh otlarni quyidagicha farqlashni taklif etgan edi: atoqli otlar birinchi navbatda nominativ funksiyaga ega, ya’ni muayyan predmetlarni, narsa-hodisalarni alohida nomlash uchun xizmat qiladi, turdosh otlar esa semasiologik, ya’ni ifodalovchi funksiyani bajaradi, ya’ni ular predmet, voqea-hodisalarni nomlash bilan birga ular haqidagi tushunchani ham bildiradi<sup>9</sup>.

Bu muammo hozirgi kunga qadar tilshunoslarni, faylasuflarni va boshqa fan vakillarini qiziqtirib kelmoqda. Masalan, 1978-yilda Krakov shahrida o‘tkazilgan XIII xalqaro Onomastik kongress “Turdosh otlar va atoqli otlar” muammosiga bag‘ishlangan edi. 1984-yilda Leypsig shahrida o‘tkazilgan XV xalqaro Onomastik kongress esa atoqli otlarni sotsiolingvistik yo‘nalishda o‘rganish muammolarini muhokama qilgan edi<sup>10</sup>.

1973- yilda til falsafasi bo‘yicha yirik mutaxassis Evgeniy Grodzinskiyning “Atoqli otlar umumiy nazariyasidan ocherk” nomli monografiyasi e’lon qilinadi.

<sup>7</sup> Есперсен О. Философия грамматики. – М.: 1958. – С. 71-72.

<sup>8</sup> Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – 366 с.

<sup>9</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М., 1967. – С. 29-30; 57-62.

<sup>10</sup> Агеева Р.А., Бахнян К.В. Социолингвистический аспект имени собственного (К ХУ Международному конгрессу по ономастике, 13-17 августа 1984 г., Лейпциг). – М.: Наука, 1984. – С. 5-12.

Bu ishda E.Grodzinskiy atoqli otlarni quyidagi uch guruhga ajratadi: a) bir designatli (designat – soʻz orqali ifodalanuvchi predmet, ifodalanuvchi denotat) yoki ideal atoqli otlar; b) koʻp designatli atoqli otlar; v) boʻsh, yoki designatga ega boʻlmagan atoqli otlar (mavjud boʻlmagan predmetlar, mifologik tasavvurlarning atoqli otlari).

J.Mill va uning tarafdorlari tomonidan olgʻa surilgan atoqli otlarda maʼno va konnotatsiya ifodalanmasligi haqidagi nazariyaga munosabat bildirib, E.Grodzinskiy atoqli otlar ham biror predmet, voqea-hodisa haqida maʼno bildiradi, designatga ega boʻladi, — degan fikrni asoslashga intiladi.

Endi oʻzbek onomastikasi oʻrganilishi tarixiga toʻxtalsak. Oʻzbek onomastikasi yoki nomshunosligi oʻtgan asrning 60-70-yillarida alohida ilmiy yoʻnalish sifatida yuzaga keldi. Oʻzbek nomshunosligi oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Ayniqsa, bu sohaning antroponimika, toponimika, etnonimika kabi bir qator sohalarida juda barakali ishlar amalga oshirildi. Masalan, oʻzbek ismlari (antroponimlari) materiallari atroflicha toʻplandi, toʻrtta nomzodlik dissertatsiyasi (E.Begmatov – 1965, Gʻ.Sattorov – 1990, S.Rahimov – 1998, R.Xudoyberganov - 2007) himoya qilindi, E.Begmatovning “Kishi nomlari imlosi” (1970), “Oʻzbek ismlari imlosi” (1972), “Oʻzbek ismlari” (1991), “Oʻzbek ismlari maʼnosi” (1998; 2004; 2010), “Ism chiroyi” (1994) nomli kitoblari nashr etildi. Bu davrda oʻzbek toponimikasi boʻyicha olib borilgan ishlarning samarasi salmoqli boʻldi. Shu kunga qadar oʻzbek toponimikasi boʻyicha 20 dan ortiq nomzodlik, uchta doktorlik (Z.Doʻsimov, S.Qorayev, T.Enazarov) ishi himoya qilindi. Oʻzbek toponimikasi boʻyicha himoya qilingan nomzodlik ishlari Qashqadaryo viloyati (T.Nafasov, T.Enazarov, O.Begimov), Surxondaryo viloyati (Y.Xoʻjamberdiyev, X.Xolmoʻminov), Samarqand viloyati (T.Rahmatov, N.Begaliyev, A.Turobov, S.Boʻriyev), Sirdaryo viloyati (N.Mingboyev), Toshkent viloyati (M.N.Ramazonova), Buxoro viloyati (S.Nayimov, A.Aslonov), Navoiy viloyati (Oʻ.Oripov), Jizzax viloyati (A.Zokirov), Fargʻona viloyati (N.Oxunov, S.Gubayeva, J.Latipov), Xorazm viloyati (Z.Doʻsimov,

A.Otajonova), Shimoliy o'zbek shevalari toponimiyasi (L.Karimova), Toshkent shahri (Sh.Qodirova) toponimiyasi bo'yicha yozilgan edi.

O'zbek toponimikasi muammolari H.Hasanov, S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov kabi olimlarning ishlarida umumiy tarzda ham tahlil qilingan. O'zbek tarixiy toponimikasi, antroponimikasi bo'yicha mamlakatimizda ayrim ishlar qilingan.

Masalan, akademik B.Ahmedov, akademik A.Muhammadjonovning ayrim tarixiy toponimlar etimologiyasiga doir kuzatishlari<sup>11</sup>, Sh.Kamoliddinning O'rta Osiyodagi qadimgi turkiy toponimiyaga oid ishlari diqqatga sazovor<sup>12</sup>. N.Husanovning XV asr yozma yodgorliklaridagi antroponimlarga, Sh.Yoqubov va B.Bafoyevlarning Alisher Navoiy onomastikasiga, M.Turdibekovning Abulg'azi Bahodirxonning "SHajarai turk" asari onomastikasiga, I.Xudoynazarovning o'zbek folklori onomastikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari o'zbek nomshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi<sup>13</sup>.

O'zbek nomshunoslari olib borgan keng ko'lamli tadqiqotlar keyingi yillarda o'zbek tilshunosligi sohasini bir qator monografiyalar (S.Qorayev, T.Nafasov, Z.Do'simov, L.Karimova, A.Turobov, N.Oxunov, N.Begaliyev, T.Enazarov, N.Husanov, S.Karimov, S.Bo'riyev), risolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, N.Oxunov, T.Nafasov, T.Enazarov, B.Qilichev), izohli lug'atlar (S.Qorayev, E.Begmatov, Z.Do'simov, X.Egamov, B.O'rinboyev, T.Nafasov, V.Nafasova, O.Holiqov) hamda ko'p sonli ilmiy hamda ilmiy-ommabop maqolalar (S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov va boshqalar) bilan boyitdi<sup>14</sup>. Bu sohada, ayniqsa, T.Nafasov, Z.Do'simov, H.Hasanov, S.Qorayev, N.Oxunov, N.Xusanov, T.Enazarov, X.Doniyorov, A.Otajonova, B.O'rinboyev kabi

<sup>11</sup> Мухаммаджонов А. "Турон" геоними ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 2. – Б. 12-16; Мухаммаджонов А. Самарқанднинг тарихий топонимлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 4. – Б. 37-42; Мухаммаджонов А. Марғилон-Марғинов номининг маъноси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 5. – Б. 39-42; Мухаммаджонов А. Фарғона номининг маъносига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 2007. № 6. – Б. 7-12; Мухаммаджонов А. "Қува" ёки "Қубо" топоними ва "Қубод" атамасининг этимологик асослари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2008. № 3. – Б. 41-46 ва бошқалар.

<sup>12</sup> Камолитдин Ш.С. Древнетюркская топонимия Средней Азии. – Ташкент: «Шарк», 2006. – 192 с.

<sup>13</sup> Бундай асарлар рўйхати ҳақида қаранг: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – 168 б.

<sup>14</sup> Бундай ишлар рўйхати қуйидаги ишда келтирилган: Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – Б. 8-164.

olimlarning hissasi kattadir.

O'zbek nomshunosligining taraqqiyotida onomastikaga oid respublikamizda o'tkazilgan ilmiy-nazariy anjumanlarning o'rne kattadir. Masalan, 1974-yilda Buxoro shahrida "O'rta Osiyo onomastikasining dolzarb muammolari" mavzusida butunittifoq ilmiy anjuman o'tkazilgan edi. Bu anjumanda juda ko'plab taniqli olimlar qatori Samarqand shahridan L.I.Royzenzon, H.Berdiyev, R.Qo'ng'urovlar ishtirok etgan edilar. H.Berdiyev B.Yo'ldoshev bilan hamkorlikda bu anjumanda «O'zbek tilida frazeologizmlar tarkibida atoqli otlarning qo'llanilishi», R.Qo'ng'urov esa "Mushtum" satirik jurnalida okkazional ma'noli atoqli otlar" mavzusida ma'ruzalar qilgan edilar. Xuddi shu yillari SamDUda "Onomastika masalalari" nomi bilan bir necha ilmiy to'plam nashr etilgan<sup>15</sup>, bu sohada ilmiy-tadqiqotlar ko'lami ancha kengaygan edi. Masalan, xuddi shu yillari SamDU olimlari poetik onomastika yoki onomastik uslubiyat masalalari bilan maxsus shug'ullana boshladilar. Taniqli adabiyotshunos olim E.B.Magazannikning "Onomapoetika yoki adabiyotda gapiruvchi nomlar" nomli yirik monografiyasi Toshkentda nashr etilgan edi<sup>16</sup>. Bu olimning shogirdi Y.Po'latov esa shu sohada izlanishlar olib borib, badiiy matndagi nomlar tarjimasiga doir qiziqarli risola yaratgan edi. Keyinchalik I.Mirzayev badiiy tarjimada kishi ismlari va geografik nomlarning berilishiga doir ayrim kuzatish ishlari olib bordi.

XX asrning 80-90 yillarida Jizzax (1985), Guliston (1987), Qarshi (1989), Navoiy (1993; 1998) shaharlarida "O'zbekiston onomastikasi" deb nomlangan butunittifoq va respublika ilmiy-nazariy hamda ilmiy-amaliy anjumanlari o'tkazilgan, ularning materiallari alohida to'plamlar sifatida nashr etilgan edi. Xuddi shu yillardan boshlab O'zMU, ToshDPU, SamDU, QarshiDU, BuxDU kabi oliy o'quv yurtlarida "Nomshunoslik masalalari", "O'zbekiston toponimikasi", "O'zbekiston onomastikasi", "O'zbek tili onomastikasi" muammolariga bag'ishlangan maxsus kurslar, ixtisoslik

<sup>15</sup> Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск 1. – Самарканд: издание СамГУ, 1971. – 150 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск II. – Самарканд: издание СамГУ, 1975. – 95 с.; Вопросы ономастики. Сборник научных статей. Выпуск III. – Самарканд: издание СамГУ, 1976. – 170 с.

<sup>16</sup> Магазаник Э.Б. Ономапoeтика или «говорящие имена» в литературе. – Ташкент: Фан, 1978. – 148 с.

seminarlari o'qiladigan bo'ldi.

O'zbek nomshunosligida mavjud bo'lgan ishlarning aksariyatida ismlar, qisman laqab va taxalluslar, mikrotoponim va makrotoponimlar, etnonimlar tahlil qilingan, xolos.

## **I.2. O'zbek nomshunosligi –fan sifatida**

Umumta'lim maktablari o'quv fan- predmetlari barchasida u yoki bu darajada, nihoyatda ko'p atoqli otlarga duch kelimiz. Ayniqsa, adabiyot, tarix,

geografiya va boshqa qator fanlar borki, ularda atoqli otlarga doir materiallar juda ko'p va bu uchragan atoqli otlarni o'rganmasdan, ularning mohiyati, ijtimoiy hayot, fan va texnikada tutgan o'rnini o'quvchilarga tushuntirmasdan, ular haqida ma'lumot bermasdan o'tish ta'limda bir yoqlamalikka olib kelgan bo'lar edi.

Mana shu hayotiy ehtiyojlarning o'zi ona tili (o'zbek tili) leksikologiyasining muhim bir tarmog'ini tashkil qilgan atoqli otlarni jiddiy rejalar, dasturlar va talablar asosida o'qitishni taqozo qiladi.

Shuning uchun ham respublikamizning tilshunos olimlari katta ilmiy anjuman - yig'inlarda, tashabbuskor pedagog va muallimlarimiz vaqtli matbuot sahifalarida ta'lim muammolariga bag'ishlangan ma'ruzalarida atoqli otlarga doir ma'lumotlarni samarali o'qitishni ilmiy asosda yo'lga qo'yish zarurligi to'g'risida uzoq yillardan buyon say'-harakatlar qilmoqdalar.

O'tgan asrning 40-50- yillarida atoqli otlarni jiddiy o'rganish onomastikaning geografiya, o'lkashunoslik va tarix kabi fanlar yo'nalishida o'rganishga targ'ib qilingan bo'lsa, asrning 60- yillarida o'zbek tilshunosligida bu sohada jiddiy ilmiy tadqiqotlar olib borilib, jiddiy natija va yutuqlarga erishilgandan keyin izchil va tadrijiy amalga oshirila boshladi.

O'zbek tilshunosligida ismlar, laqab va taxalluslar, shuningdek, familiya va ota ismlarining leksik xususiyatlari haqida birinchi bor monografik tadqiqot ishlari olib borgan E. Begmatov edi. U o'z izlanishlari bilan o'zbek tilidagi atoqli otlar tizimini ilmiy yo'nalishlarda

o'rganish ishini boshlab berdi va o'zbek nomshunosligiga asos soldi.

Shundan keyin nomshunoslik (onomastika)ning turli yo'nalishlari-toponimika, antroponomika va boshqa qator tarmoqlari bo'yicha izlanishlar davom qildi.

Mazkur yo'nalishlarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi institutlari tegishli bo'limlarida izchillik bilan ilmiy izlanishlar olib borildi. Bugungi kunda tadqiqotlar natijalarini turmushga, hayotga tatbiq qilish ishlarini davom ettirishmoqda.

60- yillardayoq onomastikaning amaliy tomonlarini hal qilish va hayotga tatbiq qilish ishlariga yosh mutaxassislar jalb qilingan, ularning safida xorazmlik tilshunos olim Z. Do'simov ham bor edi. Atoqli otlarning ta'lim jarayonida juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, o'sha yillarda «Maktabda toponomika to'garagi» nomli maqolasini e'lon qildi.

Hozirgi kunda Z. Do'simov O'zbekiston, qolaversa, Xorazm toponomikasining qator masalalarini ilmiy tadqiq qilish va izlanishlar natijalarini ta'lim-tarbiyaga tatbiq qilish bo'yicha muammolarni o'z shogirdlari- doktorant va magistr'larga maqsadli tadqiqot mavzulari qilib berib, ularga ilmiy rahbarlik qilmoqda. Professor Z. Do'simovning keyingi yillarda nashr qilgan «Joy nomlarining siri» (2001 yil), «Toponimika asoslari» (2002 yil), «Xorazm onomastik tizimining shakllanishida "Avesto"ning o'rni» nomli kitoblari o'quvchilar va talabalar uchun ilmiy-nazariy qo'llanma va amaliy yo'riqnomalar vazifasini o'tamoqda.

Respublikamizdagi oliy o'quv yurtlarida onomastika bo'yicha maxsus kurslar o'qish, fakultativ mashg'ulotlar o'tkazish o'tgan asrning 80-yillaridan boshlangan. Bu borada Penza (Rossiya) pedagogika institutining professori V.D.Bandaletov tomonidan Farg'ona pedagogika instituti o'zbek filologiyasi, tarix va geografiya fakultetlarida «Umumiy onomastika» maxsus kursi bo'yicha ma'ruzalar o'qilganligini ta'kidlash lozim. Keyinchalik bu an'ana respublikamizning boshqa oliy o'quv yurtlarida ham davom qildirilgan.

Respublikamiz tilshunoslari tomonidan onomastika, uning yetakchi

yoʻnalishlaridan boʻlgan antroponimiya va toponimiya sohalaridagi ilmiy natijalarni bugungi kunda umumtaʼlim maktablariga, taʼlim - tarbiya ishlariga tatbiq qilish kun tartibida turibdi. Maktabda, ona tili darslarida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilishda onomastik materiallardan foydalanish masalasini, shu yoʻnalishda toʻplangan materiallar asosida yoritishni ushbu ishda maqsad qilib qoʻydik.

1991-yilda Respublikamizning qadimgi davlatchilik markazlaridan biri Xorazm (Urganch)da juda katta ilmiy jamoatchilikni qamrab olgan, nomshunoslikka bagʻishlangan ilmiy-amaliy anjumani va uning umumiy onomastika, shuningdek, uning muhim tarmoqlaridan biri toponomikaning qator ilmiy -nazariy, amaliy va bu sohadagi yutuqlarini taʼlim- tarbiya ishiga tatbiq qilish boʻyicha qabul qilgan tavsiyalari bilan yaqindan tanishar ekanmiz, onomastik materiallarni maktab sharoitida oʻrganish muammolari bizdan ancha dadillikni talab qilishini tushunib yetdik va quyidagilarni yechimini topishi zarur boʻlgan masalalar deb qaradik:

—oʻquvchilarni fanlarni oʻqitish jarayonida duch kelinadigan atoqli otlarning toʻgʻri talaffuzi va yozilishi (imlosi) bilan tanishtirish;

—atoqli otlarning maʼno asoslari, tuzilishi, yasalishini oʻrgatish, qaysi ijtimoiy-tarixiy davrga, hududga aloqador ekanligi haqida maʼlumotlar berish;

—atoqli otlarni ogzaki va yozma nutqda toʻgʻri, ijodiy va madaniyatli qoʻllay olish kabi koʻnikma hamda malakalarni shakllantirish kabi taʼlim-tarbiyaviy masalalarni hal qilish lozim.

Koʻrinib turibdiki, bunday muhim jihatlarni oʻzlashtirmasdan, chinakam savodxon, yetuk maʼlumotli, chinakam madaniyatli boʻlish qiyin. Shu bilan birga, bu maʼlumot, koʻnikma va malakalarni oʻquvchilarga namunali qilib yetkazish har bir, har qanday oʻqituvchining qoʻlidan ham kelavermaydi. Buning uchun muallimlarimiz maxsus tayyorgarlikka ega boʻlishlari, onomastikaning ilmiy-nazariy asoslaridan xabardor boʻlishlari, umumtaʼlim maktablarida ularning mazmunini, bu sohadagi maʼlumot va tushunchalarni oʻquvchilarga yetkazishning qulay metodik-amaliy tomonlarini

bilgan, yetarli tajriba to'plagan, kasb-kor mahoratiga ega bo'lishlari lozim.

Ta'kidlaganimizdek, maktabda onomastik materialdan foydalanish dars jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarga onomastik bilimlarni to'plash yo'llarini tushuntirish kabi masalalar ham o'rganishni talab qiladigan dolzarb masalalardan biri bo'lib qolaveradi. Mazkur ishimiz bu masalani hal qilinishiga yaqindan yordam beradi, deb o'ylaymiz.

Istalgan bir taraqqiy qilgan tilning lug'at fondi tarkibini kuzatadigan bo'lsak, so'z boyligining salmoqli bir qismini otlar tashkil qiladi.

Tilshunoslar otlarni ikki katta guruhga bo'ladilar: turdosh va atoqli otlar. Turdosh otlar borliqdagi narsalar, voqea va hodisalar haqidagi tushuncha va tasavvurlarni umumlashtirib, mujassamlab ataydi. Masalan, kitob so'zi har qanday kitobning umumiy nomidir, shuningdek, shahar va qishloq nomlari ham har qanday shahar va qishloqlarning umumlashma, mushtarak nomidir.

Umumlashtirish, umumlashma mushohada yurita olish inson tafakkurining ulug' mo'jizasi, fikrlash tojidir. Ammo insonning hayotiy ehtiyoji, tabiatning serqirra sirlarini bila borishi qadimda inson uchun borliqdagi yakka narsalar, voqea-hodisalarni, hatto odamlarni bir-biridan farqlash, alohida ajratib atash, ya'ni ularga alohida nom berish ehtiyojini tug'dirgan. Mana shular natijasida fanda atoqli otlar yuzaga kela boshlagan. Atoqli otlar alohida, yakka holda olingan narsalar, jug'rofiy obyektlar, hodisalar uchun berilgan maxsus nomlardir. Agarda turdosh otlar narsa va hodisalar haqidagi tushunchani umumlashtirib, mujassamlab atasa, atoqli otlar yakkalab, bir-biridan ajratib, farqlab ataydi. Daryo so'zi - o'zbek tilida har qanday barcha daryolarning umumiy nomidir, ammo Amudaryo, Sirdaryo, Surxondaryo, Zarafshon so'zlari esa alohida daryolarning maxsus otlaridir. Ko'rinadiki, atoqli otlarning asosiy vazifasi, bir turdagi narsalar, joylar, o'rinlarni bir-biridan farqlash, ajratishga xizmat qilishidir.

Har qanday tilda turdosh otlar bilan birga atoqli otlar ham mavjud. Kishilarning ismlari, familiyalari, otasining ismi, taxalluslar, shuningdek, geografik nomlar, sayyora va yulduzlarning nomlari, hayvonlarga atab



qo'yilgan nomlar atoqli otlar jumlasiga kiradi. Bular bir butun holda o'zbek tilining onomastik boyligini tashkil qiladi. Binobarin, onomastika so'zi asli grekcha bo'lib, «nom qo'yish san'ati» degan ma'noni bildiradi, hamda u tilshunoslikdagi atoqli otlarni har tomonlama o'rganuvchi soha nomidir. Atoqli otlar keng va turli- tuman doiradagi narsalar, hodisalar, tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Kishi ism, familiya va ota ismiga ega. U laqabga, taxallusga ham ega bo'lishi mumkin. Bunday nomlar antroponimlar deb yuritiladi. Antroponimlarni ilmiy o'rganuvchi fan antroponimikadir.

Geografik obyektlar (daryolar, dengizlar, tog'lar, pasttekisliklar, shaharlar, qishloqlar, viloyatlar, mamlakatlar, ko'chalar, yo'llar va hokazolar) ham atoqli otlarga ega. Bunday nomlar toponimlar deyiladi. Bularni ilmiy o'rganuvchi fan toponimikadir.

Kosmik fazodagi obyektlar nomlari (yulduzlar, yulduz turkumlari, sayyoralar, kometalar) kosmonimlar deb yuritiladi. Kosmonimlarni o'rganuvchi fan kosmonimikadir.

Hayvonlarning atoqli otlari (laqablari), ayniqsa, uy hayvonlari - itlar, otlar, mushuklar va boshqalarning nomlari zoonimlarni tashkil qiladi. Bularni ilmiy o'rganuvchi fan zoonimika deb yuritiladi.

Moddiy madaniyat, fan va texnika narsalari (musiqa asboblari, zargarlik buyumlari, kemalar) hamda ma'naviy- madaniyat asarlari (kitoblar, jurnallar, musiqiy eshittirishlar va hokazolar) ham ko'pincha atoqli otga ega bo'ladi. Bularni ifodalash uchun hozircha umum qabul qilingan termin yo'q. Ularni ktematonimlar yoki xrematonimlar deb ataganlar.

Antroponimika, toponimika, kosmonimika, zoonimika, ktematonimikalar onomastika tarkibiga kiradi va uning bo'limlari hisoblanadi.

Hozirgi paytda onomastika fan sifatida alohida ajralib chiqqandan keyin, uni o'rganish zaruriyati yanada oshdi. Onomastik materialni har tomonlama o'rganish hozirgi zamon tilshunosligi ega bo'lgan ilmiy tadqiqot metodlari bilan o'rganishni taqozo etadi.

Onomastik material har qanday yuqori darajada rivojlangan til lugʻat boyligining asosiy qismini tashkil qiladi. Shu sababli ham, tilni, tarixni, geografiyani, astronomiyani va boshqa ijtimoiy va tabiiy fanlarni oʻrgangan kabi oʻrganishga loyiqdir.

Buni oʻrganish maktabdan boshlanib, yuqori oʻquv yurtida davom ettirilishi kerak. Ikkala holda ham oʻzining mazmuniga, oʻziga xos oʻquv - metodik shakliga ega boʻlib, maktabda onomastik bilimni beruvchi oʻqituvchi alohida tayyorgarlikka ega boʻlishi lozim. Maktabda deyarli hamma fanlarning oʻquv dastur va darsliklari onomastik leksikani oʻz ichiga oladi. Ayniqsa fikrlashga, bilishga, esda saqlashga, toʻgʻri qoʻllashga, toʻgʻri yozishga, toʻgʻri talaffuz qilishga qaratilgan ona tili, adabiyot, geografiya, tarix, astronomiya, jamiyatshunoslik kabi fanlar onomastik materiallarga boy. Onomastik tayyorgarliksiz har qanday fanni oʻqitishda ilmiy-metodik, gʻoyaviy-siyosiy yetishmovchilik sezilib turadi.

Haqiqatan ham, geografiyani geografik kartasiz, unga tushirilgan toponimlarsiz, gidronimlarsiz oʻqitish mumkinmi?

Oʻquvchilarda bizning shahar, koʻcha nomlarining kelib chiqishiga boʻlgan qiziqishni tarbiyalashning imkoniyatini yoʻqotib boʻladimi? Navoiy, Amir Temur, Ulugʻbek - bular bizning nomdor, buyuk vatandoshlarimiz nomiga qoʻyilgan joy nomlaridir.

Bu shaharlar tarixi, ular aholisining urf-odatlarini, ularga nega bunday nomlar berilganligi haqidagi maʼlumotlarni oʻquvchilar juda katta qiziqish bilan qabul qiladi. Yozuvchi K. Paustovskiy toponimiya toʻgʻrisida shunday yozadi:

«Nomlar - mamlakatning xalqchil, shoirona belgilari, ular xalqning turmush tarzi, tarixi, qiziqishining alohida tomonlari haqida gapiradi».<sup>17</sup>

Vatanimiz nomlari bilan tanishish bu katta va keng koʻlamli mavzu. Bu mavzuni ochar ekanmiz, vatanimizning qahramonona tarixiga diqqatimizni jalb qilish bilan bir qatorda uning ayrim shahar va hududlari tarixiga ham nazar

---

<sup>17</sup> Бондалетов В.Д. Русская ономастика. Москва, 1983. с.224.

tashlash mumkin. Bu haqida rus shoiri S.Ostrovoy shunday degan:

Yo‘q men nomlarga befarq emasman,

Men unda xalqning tarixini eshitaman.

Endi nomshunoslikning eng ko‘p ilmiy tadqiqotlar olib borilgan sohasi toponimikani tahlil qilsak. Garchi toponimlarning fan sifatida shakllanishi haqidagi ma’lumotlarimiz juda kam bo‘lsa-da, bu haqda ma’lum tasavvur uyg‘otadigan manbalar mavjud. Masalan, toponimlarni o‘rganish tarixiga oid birmuncha qiziqarli ma’lumotlarni A.L.Xromovning “Tojikiston toponimiyasi va mikrotoponimiyasidan ocherklar” (1975) asaridan olish mumkin. A.L.Xromov O‘rta Osiyoning toponimik muammolari bilan miloddan avvalgi I asrlarda yunon olimi Strabon qiziqqan, toponimik ekskurslarni Ibn Xurdodbexning (IX asr), keyinchalik Narshaxiy (X asr) va Muqaddasiylarning (X asr) asarlaridan topish mumkinligini, ammo ular tasodifiy xarakter kasb etgan va xalq etimologiyasiga asoslanganligini qayd etadi.

A.L.Xromov arab geografi Yoqutni O‘rta Osiyo va musulmon Sharqining birinchi toponimisti deb hisoblaydi. Hech mubolag‘asiz aytish mumkinki, — deydi u. Yoqutning geografik muammolarni tahlil qilish usuli hozirgi zamon metodlarini, ayniqsa, toponimlarni topoformantlarga ajratib tasniflash metodini eslatadi: - O‘rta Osiyo toponimiyasini faol o‘rganish faqat XIX asrning I yarmidan boshlandi. Shu paytdan boshlab toponimika masalalariga daxldor bo‘lgan barcha ishlarni ulardagi materialning bayon etilish xarakteriga ko‘ra ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga maxsus toponimik kuzatishlar, ya’ni geografik nomlar o‘rganish obyekti bo‘lgan ishlar kiradi. Mualliflar u yoki bu darajada toponimik masalalarni yoritgan tarix, geografiya va o‘lkashunoslikka oid asarlar ikkinchi guruhni tashkil etadi.

Ammo, uning “X-XIII asrlar Movarounnahr toponimiyasining katta foizini islomgacha bo‘lgan davrdan meros qolgan sharqiy eroniy (sug‘diy, xorazmiy va ehtimol, baqtriya) toponimlar tashkil qiladi”, — degan fikri ilmiy aniqlikni talab qiladi. Shunga qaramasdan, muallif birmuncha asosli fikrlarni ham o‘rtaga tashlagan: XIII asr Mavarounnahr toponimiyasining shakllanish

jarayoni turkiy elementlarning kuchayishi va buning oqibatida sharqiy eroniy toponimiyadagi jadal buzilishlar va moslashishlar, ayniqsa, tojik tili turkiy tillar bilan almashgan hududlarda sodir bo'ldi. Turkiy tilli aholi uchun qabul qilingan toponimiya aynan "gung" toponimiya edi. Hozirgi paytda O'zbekiston va Tojikistonning shimoliy hududlarida sharqiy eroniy toponimiya elementlari kam miqdorda saqlanib qolgan.

Ko'rinadiki, ushbu dolzarb masala bilan, jumladan, O'rta Osiyo toponimikasi muammolari bilan shug'ullanish qadimdan mavjud. Bu sohaga oid ma'lumotlarni yoritishda yana Mahmud Qoshg'ariy, Beruniy, Rashididdin, Narshaxiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Bobur, Abdurahmon Samarqandiy, Hofiz Tanish Buxoriy, Abu Tohirxo'ja kabi ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosidan, "Hudud al-olam" (Tumanskiy qo'lyozmasi, Sankt-Peterburg, 1930) kabi maxsus manbalarda, O'rta Osiyo va uning xalqlari tarixi, ilm-fani va madaniyati, etnografiyasi va arxeologiyasiga oid tadqiqotlar olib borgan V.V.Radlov, V.V.Bartold, V.L.Vyatkin, V.I.Shishkin, S.P.Tolstov, O.I.Smirnova, M.E.Masson, I.I.Umnyakov, L.N.Gumilev, G.A.Pugachenkova, Y.G'ulomov kabi olimlarning asarlaridan, "Drevnetyurkskiy slovar" singari noyob lug'atlar va ulardagi nazariy qarashlardan foydalanish mumkin.

Ushbu tadqiqotlar fanimizda bundan keyingi olib boriladigan toponimik kuzatishlar uchun poydevor vazifasini o'taydi. Ammo, gap shundaki, ular qanchalik ko'p bo'lishi bilan birga tarqoq va noizchil xarakterda ekanligi ilmiy ishlar olib borishda ma'lum qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi.

O'zbekiston toponimikasi keyingi 40 yil ichida sezilarli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ushbu sohaga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlar arsenalida katta-kichik hajmdagi maqolalardan tortib, o'quv-metodik qo'llanmalar, lug'atlar shaklidagi alohida nashrlar hamda yirik ko'lamdagi monografik tadqiqotlar ham paydo bo'ldi.

Monografik tadqiqotlar, asosan, o'zbek tili va ayrim hollarda turkiy tillar bo'yicha fan nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsion ishlardir. (1991), T.Enazarovning "Shahrisabz hududi joy nomlarining tarixiy-

qiyosiy tadqiqi” (1993), Sh.Begaliyevning “Samarqand viloyati gidronimlari” (1994), A.Otajonovning “Xorazm etnotoponimlarining o‘zlashgan qatlami” (1999), A.Turonovning “Samarqand viloyati etnonim va etnotoponimlarining tahlili” (1999), U.Oripovning “Nurota tumani makro va mikrotoponimiyasining lisoniy tahlili” (2003), A.Aslonovning “Shofirkon tumani mikrotoponimiyasining lingvistik tahlili” (2005) va boshqa dissertatsion ishlar bunga misol bo‘la oladi. R.Nuritdinovning “O‘zbek onomastikasi terminlari” ishi ham toponimik kuzatishlarga daxldordir. Toponimik tadqiqotlar sirasiga kiruvchi S. Qorayevning geografiya fanlari yo‘nalishida yozgan “O‘zbekiston oykonimlari” (1998) nomli doktorlik dissyertatsiyasi shu ma’noda fanimizning sezilarli yutug‘i bo‘lib hisoblanadi.

Bu borada yuzaga kelgan alohida nashrlar ham, asosan, ana shu tadqiqotchilarning qalamiga mansubdir. Ularning ayrimlarini eslab o‘tish bilan chegaralanamiz. S. Qorayevning “Toponimika” (T.,1970), “Geografik nomlar ma’nosi” (T.,1978), “Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi?” (T.,1970), “Toshkent toponimlari” (T.,1991), “O‘zbekiston viloyatlari toponimlari” (T.,2005), Z.Do‘simovning “Xorazm toponimlari (T.,1985)” “Joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” (T.,1977; hammuallif X.Egamov), “Joy nomlarining siri” (Xiva, 2001), “Toponimika asoslari” (T.,2002); T.Nafasovning “Janubiy O‘zbekiston toponimlarining etnolingvistik analizi” (T.,1985), “O‘zbekiston toponimlarining izohli lug‘ati” (T.,1988), “O‘zbek nomnomasi” (Qarshi,1993); B.O‘rinboyevning “Samarqand viloyati toponimlarining izohi” (Samarqand,1997), “Asrlardek barhayot nomlar” (Samarqand, 2003); T.Enazarovning “Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-uslubiy asoslari” (T.,2001), “Turkiy sodda toponimlarning etimologik tadqiqi” (T.,2002), “O‘zbekistondagi ba’zi toponimlarning etimologik tadqiqi” (T.,2004); E.Begmatovning “Joy nomlari-ma’naviyat ko‘zgusi” (T.,1998), L.Karimovning “O‘zbek tilida toponimlarning o‘rganilishi” (T.,2002); A.Muhammadjonovning “Qadimgi Toshkent” (T.,2002); S.Naimovning “Buxoro viloyati joy nomlarining qisqacha izohli lug‘ati” (Buxoro,1997);

A.Otajonovning “Xorazm etnotoponimlari”(T.,1997); N.Oxunovning “Til va joy nomlari” (T.,1988), “Toponimlar va ularning nomlanish xususiyatlari” (T.,1989), “Joy nomlari ta’biri” (T.,1994) kabi asarlari shular jumlasidandir. Taniqli geograf olim H.Hasanovning “Geografik nomlar imlosi” (T.,1962), “Geografiya terminlari lug‘ati” (T.,1964), “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” (T.,1981), “Geografik nomlar siri” (T.,1985) kabi asarlar ham alohida o‘rin tutadi.

O‘zbekiston toponimikasi qaysi davrlarda kimlar tomonidan o‘rganilgan bo‘lishidan qat’iy nazar bu tadqiqotlar izchil tarzda amalga oshirilgan deb ayta olmaymiz. Shu paytga qadar yuzaga kelgan ishlar ma’lum bir lokal regional hudud yoki toponimlarning ayrim semantik guruhlar yoki ularning etimologizatsiyasi yuzasidan olib borilgan. Toponimik areallar hududiy qamroviga qarab global (keng) va tor lokal (mahalliy), tadqiq materiallarining joylashishiga ko‘ra birvarakayiga (to‘liq) va qisman (to‘liqsiz) bo‘lishi mumkinligini inobatga oladigan bo‘lsak, O‘zbekiston yoki uning viloyatlari misolida global areallar hozircha tadqiqot manbai bo‘lgan emas.

Toponimlarni lokal-regional jihatdan o‘rganish ilmiy-metodik jihatdan qanchalik to‘g‘ri hamda amaliy jihatdan qulay va maqsadga muvofiqligidan qat’iy nazar bu tadqiqotlarning mukammalligi faqat shu hudud doirasidagina bo‘lishi mumkin. Tom ma’nodagi mukammallik esa tadqiqotlarning hududiy ko‘lamini kengaytirishni uning doirasidagi bir qator lokal-regional toponimik materiallarni qiyosiy o‘rganishni taqozo etadi. Chunki, hududda ko‘p asrlar davomida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar, olib borilgan bosqinchilik urushlari, yuz bergan turli migratsiyalar, shu hududda va boshqa hududlarda yashovchi xalqlarning tili va etnik tarkibi ana shu qiyosiy tahlilni zarurat qilib qo‘yadi.

Olib borilgan tadqiqotlar O‘zbekiston toponimik areali va toponimik materialni qamrab olishdagi qanchalik darajada to‘liq yoki to‘liq bo‘lmaganligi, mukammalligi va uzuq-yuluqligidan qat’iy nazar ular muayyan ilmiy-ma’naviy ahamiyatga ega. Har qanday ulkan ishning boshlanishi ham shunday kechishini

inobatga olsak, masala yanada oydinlashadi. To‘plangan katta hajmdagi ilmiy material va olingan natijalardan umumlashtiruvchi va nazariy xulosalar chiqarish, bu xulosalarni o‘zbek toponimikasi fanining keyingi taraqqiyotiga xizmat qildirish hozirgi nomshunoslikning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

Bu manbalar orasida T.Enazarovning “Toponimlarni etimologik tadqiq qilishning ilmiy-nazariy va amaliy-usuliy asoslari (Turkiy toponimlar misolida), I kitob” (T.,2001) asarini o‘zbek toponimikasini tadqiq etishga oid dastlabki nazariy urinishlardan deb aytish mumkin. Chunki, shu paytga qadar yuzaga kelgan adabiyotlarda ko‘proq masalaning amaliy jihatlariga e’tibor qaratilganligi kuzatiladi.

Muallif O‘zbekiston toponimikasi fan sifatida shakllangan hamda taraqqiy etmoqda, degan fikrni o‘rtaga tashlaydi. Biz bu fikrga tanqidiy munosabatda bo‘lish tarafdorimiz. Chunki har qanday fan, u qaysi tilga yoki sohaga tegishli bo‘lishidan qat’iy nazar, dastlab uning tadqiqot obyekti va predmeti, maqsad va vazifalari, tadqiq etish metodologiyasi va metodlari, boshqa fanlar bilan aloqadorlik jihatlarini sinchiklab o‘rganilishi va nazariy asosga qo‘yilishi lozim. Vaholanki, toponimika masalalari bilan qaysi fan shug‘ullanadi: lingvistikami, geografiyami yoki tarixmi, degan masalaning o‘zi hamon munozaraligicha qolmoqda. Yuqoridagi masalalar o‘z ifodasini topgan loqal birorta qo‘llanma xarakteridagi ishni ham kuzatmadik. Shunday ekan, bu masalalar fanimizda o‘z ifodasini topishi, o‘zbek toponimikasining fan sifatida shakllanganligi isbotlanishi va u nazariy asoslanishi lozim. Bu borada o‘zbek tilshunosligida yuzaga kelgan tadqiqotlar esa bu mas’uliyatli va sharaflil vazifani amalga oshirish uchun nazariy va faktik materialni allaqachon to‘planganligidan dalolat beradi.

Harqalay, yuqorida aytilganlardan fanning predmeti, maqsad va vazifalarini belgilab olish mumkin. Tabiatdagi geografik obyektlarning nomlari *toponimikaning predmeti* hisoblanadi. Ana shu nomlarning kelib chiqishi va ma’nosini lingvistik aspektida o‘rganish, ya’ni ularni leksik-semantik va

etimologik tahlil etish uning asosiy maqsadidir. Bu maqsadni amalga oshirish yoʻlida toponimika oʻz oldiga bir qator vazifalarni qoʻyadi. Jumladan, geografik obyektlar nomlarining fonetik va grammatik strukturasi, leksik-semantik va boshqa lingvistik xususiyatlarini, diaxron shakllarini, qaysi tildan kelib chiqqanligini aniqlash toponimikaning oʻzbek tilshunosligi fanining alohida sohasi sifatida oʻrnini belgilash va tarixiy taraqqiyotini yoritish ushbu vazifalar sirasiga kiradi. Garchi toponimlar uchun xos xususiyat sanalmasa-da, baʼzan uchrab turadigan stilistik tovlanishlarni ham eʼtiborga olish lozim boʻladi. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida yana toponimik unsurlarni hududiy yoki ularning semantik tiplariga qarab, dala amaliyoti yoʻli bilan roʻyxatga olish singari birmuncha murakkab ishlarni ado etish ham lozim boʻladi. Demak, oʻzbek tilshunosligida toponimikaning predmeti, maqsad va vazifalari aniq ekan. Ayni paytda, bu fikr uni tilshunoslikning bir sohasi sifatida qarash lozimligi haqidagi mulohazalarga zid emas.

Garchi toponimika nom, atoqli ot sanalishi nuqtayi nazaridan onomastika doirasida qaralsa-da, oʻziga xos, alohida xususiyatlarga ham ega. Birinchidan, toponimika doirasida qaratilgan lugʻaviy birliklar faqat geografik joy nomlarini atash bilan funksional chegaralanadi. Ikkinchidan, bu birliklar atama sanalishi jihatdan barcha onomastik birliklar bilan umumiylikni tashkil etsa-da, yasash modellariga koʻra muayyan farqlarga ega, nomlanish jarayonida turli ekstralingvistik vaziyatlarning rol oʻynashi, toponimik yasash, garchi oʻzbek tili soʻz yasashi qonuniyatlaridan oziqlansa-da, yana oʻz yasash usullarining mavjudligi, soʻzning apellyativ holatdan onomastik holatga oʻtishidagi sotsiolingvistik omillar, nomlarning saqlanishidagi turgʻunlik va beqarorlik kabi holatlar ana shu oʻziga xoslikdir.

Sotsiolingvistik nuqtayi nazardan qaraganda nomlanish ham lingvistik hodisa sanaladi. Binobarin, toponimlarning paydo boʻlishi, turgʻunlashishi, yoki aksincha, almashinishi maʼnosidagi turlicha oʻzgarishlarning sodir boʻlishi jamiyat taqdiri bilan bogʻliq boʻladi.



Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, insoniyat jamoa bo'lib, uyushgan holda yashay boshlagan paytlardan, ya'ni til va jamiyat taraqqiyotining navbatdagi bosqichida o'zlari istiqomat qilayotgan joy va uning tevarak-atrofini nomlash ehtiyoji ham paydo bo'lgan. Bu ehtiyoj dastlab geografik nuqtayi nazardan yuzaga kelgan. Mo'ljal olish yoki bir manzilni ikkinchi manzildan farqlash ana shu geografik ehtiyojlar bo'lib hisoblanadi. Bu nomlarning ibtidoiy holati bugun bizgacha yetib kelgan arxeologik yodgorliklar, masalan, toshlarga o'yib yozilgan turli belgilar bilan baravar qiymatda bo'lgan bo'lishi mumkin. Harqalay, nomlanish jarayoni til rivoji, insoniyat tobora qo'lga kirita borgan madaniy taraqqiyoti bilan birgalikda o'sib, takomillashib borgan.

Joylarning ibtidoiy nomlari qay darajada turg'unlik kasb etganligi bizgacha noma'lum. Ammo o'tgan ming yillar davomida bir necha martalab o'zgarishlar, yangilanishlarga, qayta nomlanishlarga yuz tutgani aniq. Shuning uchun ham toponimist tadqiqotchilar yozuv paydo bo'lgandan oldingi jarayonlarni taxminiy bo'lsa-da, qayta tiklash, ko'plab qadimgi joy nomlari etimologiyasini aniqlash g'oyatda qiyin vazifa ekanligini ta'kidlaydilar.

Toponimlarning turg'unligi haqida turlicha qarashlar mavjud. Masalan, ozarbayjon toponimisti S.M.Mullazoda shunday deydi: "Umuman, toponimik nomlar, anchagina qadimiy bo'lishi bilan birgalikda juda turg'un hisoblanadi va amalda o'zgarishga kam yuz tutadi. Geografiya so'zlashuv tiliga tayanar ekan, ular uzoq vaqt yashaydi, bu jarayon hatto ma'lum ijtimoiy-tarixiy shart-sharoitlar, ayniqsa, og'zaki nutqda qo'llanishi davom etadi". (Mollazade S.M. Топонимия северных районов Азербайджана. Baku Maarif, 1979, B.137-138).

B.A Serebrennikov bu borada quyidagilarni aytgan: —Toponimik nomlar g'ayrioddiy turg'unlikka ega bo'ladi. Yer yuzida xalqlar va tillar yo'q bo'lib ketishi, toponimlar esa o'ziga xos atoqli otlar sifatida, geografik obyektlarning ifodasi sifatida boshqa xalqlar tomonidan oson o'zlashtirilishi va shu yo'llar bilan ming yillab saqlanishi mumkin.

Biz esa bu masalaga biroz boshqacharoq qarash tarafdorimiz. Bizningcha, jamiyat hayoti va taraqqiyoti yuz bergan o'zgarishlar ko'pchilik holatlarda

toponimik nomlarning o'zgarishiga olib keladi. Faqatgina butun dunyoda e'tirof etilgan va ma'lum bo'lgan Rim, Samarqand, Ximolay, Kavkaz, Ganga, Moskva, Nil, Ural singari makrotoponimlar o'zlariga turg'unlik xususiyatini saqlab qolishi mumkin. Toponimlarning ma'lum guruhi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar tufayli va boshqa sabablar bilan almashinishiga yuz tutadi. Bu esa toponimlarning turg'unligi haqidagi tushunchaning nisbiy ekanligidan dalolat beradi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi aholini ro'yxatga olish bilan bog'liq ravishda turli yillarda qayd etilgan mahalliy obyektlar ro'yxatlarini solishtirish bu ro'yxatga olishlar oralig'ida joy nomlarida sodir bo'lgan o'zgarishlar va yangilanishlar aniq ko'rsatib turadi. H.Hasanov ham "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" asarida 1962- yilda mahalliy hokimliklar talabi bilan O'rta Osiyo temir yo'llariga qarashli bir qator bekatlarning nomlari o'zgartirilganligi haqida ma'lumot bergan. Bu bekatlarning aksariyat qismi ruscha va ular mahalliy aholi uchun g'ayritabiiy bo'lib, qo'llanilishi ma'lum qiyinchiliklar tug'dirib kelayotgan edi. Bu kabi qayta nomlanishlar milliy manfaatlar nuqtayi nazaridan amalga oshirilgan islohotlarning bir qismi bo'lib qoldi. A.V.Superanskaya ham "Biz endi bir marta va juda qadimda bo'lsa-da, so'z ohangdorligi va mahalliy aholi tilidagi o'zgarishlar ta'sirida tovush qiyofasini almashtirgan nomlar va ma'lumotlar borligini bilamiz. Shunday ekan, ularning o'zgarmasligi haqidagi fikr nisbiydir", deb yozgan va Ra-Itil-Volga so'zlarini misol tariqasida keltirgan edi.

Aslida yozuv paydo bo'lgandan keyingina geografik obyektlarda nom qo'yish bir tizimga kelgan deb bo'lmaydi. Chunki, biror obyektga nom qo'yishda o'zaro kelishuv, bu borada tegishli qarorlar qabul qilish kamdan kam uchraydigan hodisa. Odatda, joylarning nomlanishida xalq turmush tarzidagi tabiiylik, odatlanish ustunlik qiladi. Joylarni geografik landshaft, relyefda, yoki bo'lmasa, shu yerda yashayotgan xalqlarning etnik tarkibidan kelib chiqib nomlash ana shu tabiiylik va odatlanish asosida amalga oshadi. Joy nomlangan paytlarda uning ma'nosi va nomlanish sabablari shu nomni qo'ygan aholiga aniq ma'lum bo'lgan bo'lishi mumkin. Nomlash an'anasi mavjud bo'lgani hamda

aynan shunday atalishini yozuvda qayd etib qo'yish esa taomilda kam uchraydi. Xalq joyni nomladimi, uni shu nom bilan atab ketaveradi, nega shunday atalgani esa vaqt o'ta borgani sayin unutila borilib, uning o'rnini turli taxminlar, rivoyatlar, afsonalar egallayveradi. Payti kelib uning etimologiyasini aniqlash tadqiqotchilarning zimmasiga tushadi.

Ushbu bobdan kelib chiqadigan xulosalar:

O'zbek tilidagi atoqli otlarning ba'zi tiplari shu kunga qadar deyarli o'rganilgan emas yoki kam tahlil qilingan. Bunday masalalar qatoriga mifonimlar, ktematonimlar, agnonimlar, nekronimlar, geonimlar, gemeronimlar, dokumentonimlar, oronimlar, patronimlar, pereytonimlar, xromonimlar, geortonimlar, fitonimlar, ekklezionimlar, ergonimlar, xrematonimlar, badiiy onomastika, onomastik uslubiyat, laqab va taxalluslar, atoqli otlarning imlosi, onomastik birliklarning amaliy transkripsiyasi va transliteratsiyasi, nomshunoslikning amaliy va nazariy muammolari, jumladan, onomastik leksikografiya muammolari kiradi.

Nomlash bilan bu nomni tadqiq etish orasidagi masofa uzaya borgani sari, nomlanishining sababi va nomlarning etimologiyasi ham murakkablashib boraveradi.

Shunday bo'lishiga qaramasdan, til tarixi jamiyat va xalq tarixi bilan chambarchas bog'liq ekan, til materialini o'rganishning tarkibiy qismi bo'lgan toponimik ma'lumotlarni to'plash va tahlil etish ham ilmiy, ham ma'naviy jihatdan dolzarbligicha qoladi. Nega? Chunki tarixiy jihatdan uzoq davrlarning mahsuli bo'lgan toponimik materialni tahlil etish ushbu nomlar daxldor bo'lgan joylarda yashagan va yashayotgan xalqning tili, etnik tarkibi, etnografiyasi hamda bu joylarning geografik landshafti haqida nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, geografiya, hattoki geologiya fanlari uchun qo'shimcha ma'lumotlar beradi.

Vaqt o'tishi bilan toponimik atamalarning bu kabi ma'lumotlar berish imkoniyati ham ayrim fanlar doirasida chegaralanib boradi. Masalan, toponimik tadqiqotlar bugungi kunda ham tarix va o'zbek tili tarixi uchun o'z ahamiyatini

yo‘qotgan emas. Ammo bu gapni ba’zi tadqiqotchilar o‘z asarlarida qayd etgan geologiya fani uchun aytib bo‘lmaydi. Chunki bu fanning bugungi taraqqiyotida o‘z muammolarini yechishda boshqa vositalardan foydalanish imkoniyati nihoyatda kengayib ketgan.

## **II. BOB. TA'LIM JARAYONIDA NOMSHUNOSLIK**

### **II.1. Oliy Ta'lim sohasida nomshunoslikning o'rganilishi**

Onomastika – yunoncha *onomastike* – soʻzidan olingan boʻlib, “*nom qoʻyish sanʼati*” degan maʼnoni bildiradi. Hozirgi vaqtda bu termin ikki maʼnoda qoʻllaniladi:

1. Maʼlum bir til, xalq tarkibida qoʻllangan barcha atoqli otlarning yigʻindisi.
2. Atoqli otlar, ularning shakllanishi va oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganuvchi tilshunoslik sohasi<sup>18</sup>.

XX asrning 60-70 yillarida oʻzbek tilshunosligida bir qator ilmiy yoʻnalishlar paydo boʻldi. Masalan: eksperimental fonetika, fonologiya, morfonologiya, frazeologiya, stilistika (uslubshunoslik), nutq madaniyati, ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistika), areal lingvistika, lingvostatistika kabilar. Oʻzbek onomastikasi ham oʻsha davrlarda vujudga kelgan tilshunoslikning yangi sohalaridan biri sanaladi.

Oʻzbek onomastikasi (nomshunosligi) oʻtgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab tilshunoslikning eng rivojlangan sohalaridan biriga aylandi. Oʻzbek nomshunosligi boʻyicha olib borilgan keng koʻlamli tadqiqotlar oʻzbek onomastikasi sohasini bir qator monografiyalar, risolalar, izohli lugʻatlar, koʻp sonli ilmiy maqolalar, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari bilan boyitdi<sup>19</sup>. Shu sababli mamlakatimiz oliy oʻquv yurtlarining gumanitar yoʻnalishlarida nomshunoslikning oʻrganilishi boʻyicha tanlama fanlarni oʻqitish yoʻlga qoʻyildi. Bu tanlama fan yoshlarga tilshunoslikda va uning hozirda jadal rivojlanayotgan sohasi nomshunoslik boʻyicha qilinayotgan yangiliklar haqida qimmatli fikrlarni berishga harakat qiladi.

“Oʻzbek onomastikasi masalalari” tanlanma fanini oʻrganish uchun Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak maʼnaviyat - yengilmas kuch” asarida bildirilgan quyidagi fikr-mulohazalar asosiy dasturilamal boʻlib xizmat qiladi: “Bugungi kunda yoshlarimiz yurtimizning koʻcha va xiyobonlari,

<sup>18</sup> Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – Б. 60.

<sup>19</sup> Бу ҳақда қаранг: Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич (XIX аср охиридан – 2008 йилгача эълон қилинган ишлар олинган). – Наманган, 2008. – 168 б.

metro va avtobus bekatlari, katta-katta maydonlar, binolarni bezab turgan o'zbekcha nomlar, shior va lavhalarni ko'rib ularning barchasini odatiy bir hol sifatida qabul qiladi. Vaholanki, yaqin tariximizda bu manzara butunlay boshqacha ko'rinishga ega edi. Birgina Toshkent shahridagi ko'chalarning nomlarini o'qib, beixtiyor qaysi mamlakatda yurganingizni bilmay qolar edingiz: *Marks, Engels, Lunacharskiy, Kirov, Voroshilov, Lopatin* va hokazo. Shunisi ajablanarliki, bolsheviklar partiyasining dohiylari bo'lmish bu insonlarning birortasi ham umrida yurtimizga qadam qo'ymagan, bizning tariximiz va qadriyatlarimizga mutlaqo aloqasi bo'lmagan kimsalar edi. Yoki shahardagi aksariyat turarjoy mavzelari "*S-1*", "*S-2*", "*S-15*" degan, odamda hech qanday his-tuyg'u, xotira uyg'otmaydigan mavhum nomlar bilan atab kelinganini eslaylik.

Bularning barchasi zamirida odamzotni tarixiy xotira, vatan tuyg'usidan judo qilishga qaratilgan g'arazli intilishlar mujassam ekanini anglash, tushunish qiyin emas.

Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan. Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. *Samarqand, Beshyog'och, Ko'kcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar* darvoza degan nomlar avvalambor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi.

Qadimiy nomlarda ota-bobolarimizning hayot va tafakkur tarzi yaqqol o'z aksini topgan. Masalan, Toshkentning Eski shahar qismidagi *Pichoqchilik, Charxchilik, Ko'nchilik, Degrezlik, Taqachi, Egarchi, O'qchi, Zargarlik, Parchabof* singari mahalla nomlari bu erda hunarmandchilik naqadar rivojlanganidan, xalqimizning azaldan o'troq hayot kechirib, yuksak madaniy turmush darajasiga ega bo'lganidan dalolat beradi.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, keyingi yillarda poytaxtimizda milliy tariximizga begona bo'lgan, yuqorida zikr etilgan yasama, siyosiy nomlar o'rniga *Mirobod, Rakat, Mingo'rik, Darxonariq, Shayxontohur, Yakkasaroy,*

*Zarqaynar, Uchtepa* kabi asl nomlarning tiklanganini, eng muhimi, bunday ishlar mamlakatimizning barcha mintaq va hududlari miqyosida amalga oshirilayotganini ta'kidlash joiz"<sup>20</sup>.

“O‘zbek onomastikasi masalalari” deb nomlanuvchi tanlanma fanning asosiy vazifasi nom qo‘yish san’ati bo‘lgan onomastikaning mamlakatda shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o‘rganish metodlari haqida talabalarga zarur tushuncha va ma’lumotni berishdan iboratdir<sup>21</sup>.

Ma’lumki, onomastika tilshunoslikning har qanday atoqli otlarni, ularning paydo bo‘lish va o‘zgarish tarixini o‘rganuvchi bo‘limi, shuningdek, tildagi barcha atoqli otlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi. Onomastika fani tildagi mavjud onomastik tizimlarni aniqlash va o‘rganishni maqsad qilib qo‘yadi.

Onomastika fani atoqli nomlarni olgan obyektlarning toifalariga ko‘ra quyidagi guruh (bo‘lim)larga ajratadi: *antroponimiya* – kishilarning atoqli nomlari (ismlari, familiyalari, ota ismlari, laqablari, taxalluslari), *toponimiya* – geografik obyektlarning atoqli nomlari, *teonimiya* – turli diniy tasavvurlar bo‘yicha xudolar, ma’budlar, diniy-afsonaviy shaxs va mavjudotlarning nomlari, *zoonimiya* – hayvonlarga qo‘yiladigan (shartli) atoqli nomlar, laqablar, *kosmonimiya* – fazoviy bo‘shliq hududlari, galaktikalar, burjlar va boshqalarning ilmiy muomalada va xalq orasida tarqalgan nomlari, *astronimiya* – ayrim osmon jismlari (planeta va yulduzlar) nomlarining majmuini o‘zida ifodalaydi. Bundan tashqari onomastikaning yana bir qancha bo‘lim (guruh)lari mavjud. Masalan, onomastikaning bir bo‘limi *realionimlar* (avval va hozir mavjud bo‘lgan obyektlarning nomlari) deb nomlansa, unga zid bo‘lgan *mifonimlar* xayoliy – to‘qima obyektlarning nomlarini bildiradi.

Atoqli nomlarning til (lisoniy) xususiyatlarini o‘rganilish darajasiga qarab onomastika *adabiy va dialektal onomastika, odatdagi (amaliy) va poetik onomastika, zamonaviy va tarixiy onomastika, nazariy va amaliy onomastika* kabi turlarga bo‘linadi.

<sup>20</sup> Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 91-93.

<sup>21</sup> Ўзбек ономастикаси масалалари. Намунавий дастур. Бакалаврият йўналиши: 5А 220100 – филология (ўзбек тили ва адабиёти). Тузувчилар: Йўлдошев Б., Эназаров Т. - Самарқанд, СамДУ нашри, 2009. – 32 б.

Shulardan biri bo‘lgan nazariy onomastika til va nutqdagi, adabiy va dialektal sohalarga tegishli atoqli nomlarning paydo bo‘lishi, ularning nominatsiya (nomlanish) asoslari, rivojlanishi, shu jarayondagi turli xil o‘zgarishlari, onomastik birliklarning nutqda qo‘llanilishi, muayyan hudud va tillarda tarqalishi hamda onomastik birliklarning tarkibiy tuzilishini o‘rganadi. Badiiy matnlardagi atoqli nomlarni tadqiq etish alohida muammo bo‘lib, bu badiiy onomastika yoki onomapoetikaning asosiy vazifasidir. Onomastika, shuningdek, tilshunoslikning qiyosiy-tarixiy, struktur, genetik, areal, onomastik xaritalashtirish va boshqa usullarini qo‘llagan holda, atoqli nomlarning fonetik, morfologik, derivatsion (yasalish, shakllanish), semantik, etimologik kabi jihatlarini ham o‘rganadi.

Amaliy onomastika xorijiy tillarga mansub nomlarning transkripsiyasi, transliteratsiyasi, an’anaviy (talaffuz va yozilishiga ko‘ra), tarjima qilinadigan va tarjima qilinmaydigan nomlarni aniqlash, “begona” nomlarni o‘z tilda qanday yozish bo‘yicha yo‘riqnomalar tayyorlash, xorijiy tillardan o‘zlashgan nomlardan yangi onomastik birliklar hosil qilish bilan, nom berish va nomlarni o‘zlashtirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

Onomastika, jumladan o‘zbek onomastikasi tarix, etnografiya, genealogiya, geraldika, matnshunoslik, adabiyotshunoslik, geografiya, astronomiya, geologiya, demografiya kabi bir qator fanlar bilan uzviy aloqador fan sanaladi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz oliy o‘quv yurtlarida bu tanlanma fan turli xil nomlar bilan o‘rganilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Milliy universitetida bu tanlanma fan “Nomshunoslik masalalari” deb nomlanadi, Buxoro davlat universitetida esa “O‘zbek tili onomastikasi” deb nomlangan ixtisoslik kursi o‘rganiladi<sup>22</sup>. Ana shu ixtisoslik kursi materiallari asosida “Buxoro viloyati toponimlari” deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasi ham yaratildi. Bizda bu fan hozirda magistratura yo‘nalishida o‘qitilmoqda.

“O‘zbek onomastikasi masalalari” nomli tanlanma fanning tarkibiy

---

<sup>22</sup> Қиличев Э. Ўзбек тили ономастикаси (5 А 220102 ихтисослиги учун). Ўқув-услубий қўлланма. Т, 2004. 80 б.



qismi quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi:

1. Atoqli otlarning tilshunoslikda o'rganilish tarixi haqida.
2. Hozirgi zamon tilshunosligida atoqli otlarning o'ziga xosligi muammolarining o'rganilishi.
3. O'zbek onomastik ko'lami, uning hajmi va mazmuni.
4. Onomastik birliklarni tadqiq etish metodlari.
5. O'zbek antroponimikasi, uning tarixi va asosiy taraqqiyot bosqichlari.
6. O'zbek toponimikasi, uning asosiy taraqqiyot bosqichlari.
7. O'zbek toponimikasining umumiy tavsifi, unda o'z va o'zlashgan qatlam elementlari.
8. O'zbek kosmonimikasi, zoonimikasi, gidronimikasi, etnonimikasi, ideonimikasi kabilarning rivojlanish bosqichlari.
9. O'zbek onomastikasi masalalarini litsey, kollejlarda va umumta'lim maktablarida o'rganish muammolari va boshqalar.

Keyingi yillarda mamlakatimizda onomastikaning nazariy va amaliy muammolarini o'rganishga alohida ahamiyat berilmoqda. Masalan, respublikadagi har bir viloyat, shahar, tuman hokimliklari oldida toponimik obyektlarga nom qo'yishni muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus komissiyalar ish yuritmoqda. Bu komissiyalar o'sha hududdagi toponimik obyektlarga qo'yilgan nomlarni zamon talablariga ko'ra yangilash bo'yicha qator ishlarni amalga oshirmoqda. Masalan, prof. I.Suvonqulov Samarqand shahri ko'chalarining yangi nomlari talqini haqida "Tariximizning o'chmas sahifalari" deb nomlangan asar yaratgan edi. Xuddi shunday ish Qarshi shahri bo'yicha ham amalga oshirilgan. Bizning viloyatimizda ham bu borada qilinayotgan ishlar anchagina. Fakultetimiz professor va o'qituvchilari ham bu borada ko'zga tashlanarli ishlarni amalga oshirishmoqda. Ayniqsa bu tanlama fan o'qitilayotgan magistraturaning "Lingvistika" —o'zbek tili yo'nalishi talabalarining bu boradagi ilmiy ishlari, maqolalari nihoyatda dolzarbliligi bilan ajralib turadi. Xorazm tarixiy o'lka. Undagi nomlarni atroflicha o'rganish, tadqiq qilish, darsliklarda ularga ham o'zlariga munosib joy ajratish oldimizdagi

vazifalardan biridir. Shuning uchun ham “O‘zbek tilshunosligi” kafedrası professor va o‘qituvchilari respublika va xorij mamlakatlari doirasida onomastika masalalari bo‘yicha o‘tkazilayotgan barcha ilmiy- nazariy tadbirlarda o‘z ilmiy maqolalari bilan ishtirok etishmoqda va bu borada muhim fikrlarga ega ekanligini amaliy jihatdan isbotlashmoqda. Kafedraning deyarli barcha a‘zolari fan nomzodlik dissertatsiyalarini himoya qilishda nomshunoslikning toponimiya, kosmonimiya, antroponimiya, etnonimiya kabi sohalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borishgan va ilmiy izlanishlarini muvaffaqiyatli yakunlashgan va albatta, o‘z yechimini kutayotgan muammolarning ayrimlarini o‘z magistrantlari bilan ishlashni yo‘lga qo‘yishgan. Bu juda quvonarli holat. Magistrlar ham o‘z ilmiy ishlarida viloyatimizdagi ayrim tarixiy nomlarga o‘z munosabatlarini tugal bildirishgan va ularning ilmiy xulosalari o‘z isbotini topgan.

## **II.2. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ona tili va adabiyot darsliklarida atoqli otlarning o‘rganilishiga oid misollar tavsifi**

Biz ushbu mavzu yechimini topishga harakat qilib, akademik litsey va kasb- hunar kollejlari ona tili va adabiyot darsliklarini ko‘zdan kechirdik, tahlil qildik. Bu darsliklarning ko‘pchiligida atoqli otlarning o‘rganilishiga oid materiallar deyarli yo‘q, bori ham juda qisqa berilgan. Faqat 2013- yilda nashr qilingan akademik litsey va kasb- hunar kollejlari bo‘yicha “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsligining 2-kitobida “Nomshunoslik”ka doir mavzu qisqa bo‘lsa-da yoritilganligining guvohi bo‘ldik. Demak, bu borada qilinadigan ishlar, yechimini kutayotgan muammolar talaygina. Quyida shu darslikdan mavzu bo‘yicha namunalar keltiramiz.

**Darsning mavzusi:** Nomshunoslik.

**Darsning maqsadi:** o‘quvchilarda nomshunoslik (onomastika) haqida bilim va ko‘nikmalar hosil qilish. Ularga nomlash tamoyillari haqida ma’lumotlar berish.

### **Reja:**

- \* Nomshunoslik (onomastika) haqida ma'lumot.
- \* Obyektlarning nomlanish asoslari (nom va nomlanuvchi obyekt o'rtasidagi munosabat).
- \* Nomlarning nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra tasnifi

**1-topshiriq.** *Uchtepa, Beshkapa* singari so'zlar nimani ifodalaydi? Bu nomlar bilan ular ifodalagan nom o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang.

2- **topshiriq.** *Bo'riboy, Xoldorali, Hayitboy, Safarali* kabi kishi nomlari kimlarga va nima uchun qo'yilishini izohlang.

Siz yashab turgan joydagi ko'chalar, maydonlar, shahar va qishloqlar, daryo, ko'l, tepalik, qabristonlar, ma'lum nom bilan yuritiladi. Masalan, Samarqand shahri, Amir Temur ko'chasi, «Mustaqillik» maydoni, Alisher Navoiy nomli jamoa xo'jaligi va boshqalar.

Turli xil obyektlarning muayyan nom bilan atalishida ularning ma'lum belgilari e'tiborga olinadi. Buyuk shaxslarning nomini abadiylashtirish uchun u bilan qandaydir bogliq bo'lgan holat hisobga olinadi yoki shaxsga katta hurmat yuzasidan joy shu shaxs nomi bilan yuritiladi. Masalan, Hamzaobod shahri shu joyda ma'lum davr yashab, mehnat qilgan Hamza nomi bilan; Qipchoq, Saroy qishloqlarining nomlari shu qishloq aholisining etnik kelib chiqishi bilan, Qatortarak, Uchtol, Beshariq, Baland masjid singari joy nomlari shu joydagi o'simlik, bino, suv inshooti xususiyati bilan bog'liq ravishda qo'llangandir. Shaxsga qo'yilgan nomlarda esa ota-onaning orzu-umidi (Baxtiyor, Umid, Go'zal), bolaning tashqi belgisi (Xoldor, Anor, Qovoqvoy), xalqning urf-odati (O'roqvoy, Teshavoy), tug'ilgan kuni (Odina, Jumavoy).—

**Nomlar, ularning turlari, nomlanish sabablari bilan shug'ullanuvchi tilshunoslikning bo'limiga onomastika (lot. *onuma* — nom so'zidan olingan) deyiladi.**

Atoqli otlar nomlanuvchi obyekt turiga ko'ra bir necha guruhga bo'linadi:

1. Shaxs va ularga qo'yilgan nomlar **antroponimlar** (lot. *antropoz* — shaxs,

odam; *onuma* — nom): *Ahmad, Karim* va boshqalar.

2. Kichik obyektlar va ularning nomlari- **toponimlar** (lot. *topos* —shahar, maydon, ko‘cha, *onuma* — nom): *Shirmonbuloq*, *Qarshi kabi*.

3. Hayvon nomlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar- zoonimlar (lot. zoo-hayvon, *onona*-nom): *to‘rtko‘z, bo‘ribosar* kabi.

4. Suv havzalari inshootlari va ularga atab qo‘yilgan nomlar (daryo, ko‘l, dengiz nomlari) **gidronimlar** (lot. *gidro* — daryo, suv, *onuma* — nom): *Orol dengizi, Balxash ko‘li, Qashqadaryo* kabi.

### ***Savol va topshiriqlar***

1. Onomastikada nima haqida bahs yuritiladi?
2. Nomlarning qanday turlarini bilasiz ?
3. Nom bilan nomlanuvchi obyekt o‘rtasida qanday munosabatlar bor?

*110- mashq.* Quyida berilgan so‘zlarni obyekt turiga ko‘ra guruhlang: (toponimlar, antroponimlar, zoonimlar, gidronimlar) Kattaqo‘rg‘on, Sirdaryo, Dilnavoz, tulki, tuya, Sarvigul, Yo‘lbars, Sher, Shahnoza, Amudaryo, Buloqboshi, Zadaryo, ot, Koson, Shahriyor, Abdulhoshim, Orol dengizi, Kampiravot, Azov dengizi, Nil daryosi, Sevan koli, Ra‘no, Dilorom, eshak, qo‘y, ho‘kiz, Mavluda, Behzod, Bobur, Farg‘ona kanali.

*111-mashq.* Suv havzalari bilan atalgan joy nomlarini izohi bilan o‘qing.

Achchiqko‘l — Farg‘ona viloyati O‘zbekiston tumanidagi qishloq. Achchiqko‘l — asli suv havzalaridan biri — ko‘lning nomi, ko‘l suvining achchiqligi, o‘ta sho‘r ekanligi, iste‘mol qilish uchun yaroqsizligi ko‘lning shu tarzda nomlanishiga sabab bo‘lgan. Ko‘l hozirda yo‘q bo‘lib ketgan, lekin uning nomi shu atrofdagi aholi turar joyi atamasi sifatida saqlanib qolgan. Aniqrog‘i, ko‘l nomi asosida qishloq nomi vujudga kelgan.

Xalqimizda “Ko‘l qurisa ham nomi qurimaydi” degan naql bor. Darhaqiqat, respublikamizda garchi o‘zi qurib, yo‘qolib ketgan bo‘lsa- da, nomi hamon saqlanib qolgan ko‘llar anchagina topiladi. Ular hozirda qishloq nomlari sifatida yashab kelmoqda.

Shaytonko‘l (Farg‘ona viloyati Beshariq tumani), Oydinko‘l (Farg‘ona viloyati Buvayda tumani), Qorako‘l (Farg‘ona viloyati Uchliko‘prik tumani), Oqko‘l (Farg‘ona viloyati Dang‘ara tumani), Damko‘l (Farg‘ona viloyati tumani), Qo‘g‘aliko‘l (Namangan viloyati Zadaryo tumani), Bordimko‘l (Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani), Darvozako‘l, Sho‘rko‘l (Namangan viloyati Yangiqo‘rg‘on viloyati), Chapko‘l, Polvonko‘l (Namangan viloyati Norin tumani), Oltinko‘l (Andijon viloyati Oltinko‘l tumani), Bordonko‘l (Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani) singari qishloq nomlari hozirda mavjuddir.

*112-mashq.* Siz qanday suv havzalari va inshootlar nomlarini (gidronimlar) bilasiz? Ularni sanab o‘ting. Agar bilsangiz izohi bilan bering. So‘ng professor E.Begmatov haqidagi matnni o‘qing, uning o‘zbek nomshunosligini rivojlantirishdagi xizmatlarini belgilang.

#### ERNST BEGMATOV (1936)

Filologiya fanlari doktori, professor Ernst Begmatov o‘zbek nutq madaniyati, leksikologiyasi muammolarini hal qilishda barakali faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Ayniqsa, uning o‘zbek onomastikasining shakllanishi va rivojida katta xizmati bor. Olim bu sohada o‘zining qator asarlarini e‘lon qildi. Ular ichida «Kishi nomlari imlosi» (1970), «O‘zbek ismlari imlosi» (1972), 14600 ismning izohini o‘z ichiga olgan «O‘zbek ismlari» (1999) kitoblari alohida qimmatga ega.

*114-mashq.* Quyida berilgan toponimni o‘qing, so‘ngra siz ham toponimlarga misollar yozib, uni izohlang.

Nazarmahram — Andijon viloyati Shahrixon tumanidagi qishloq nomi. Mazkur toponim kishi ismi va Qo‘qon xonligi davridagi amal — mansabga oid atamalardan biri mahram so‘zidan tarkib topgan. Mahram — xonga yaqin bo‘lgan va uning huzuriga kira oladigan kishi. Shuningdek, mahramlar saroydagi boshqa ishlarni ham bajarganlar. Ko‘rinadiki, o‘tmishda mansab nomlari ko‘pincha amal egasining nomiga qo‘shilib aytilgan. Shunga ko‘ra ba’zi joy nomlariga kishi ismi va mansab nomi atama bo‘lib qolgan, Nazarmahram

fikrimizning isbotidir.

(N. Oxunov)

**115-mashq.** Uyga topshiriq. «Geografiya» darsligidan foydalanib, joy nomlari (toponimlar)ning quyidagi turlariga misollar yozing.

Oʻrmon, toʻqay, sahro, yaylov, yoʻl, dala, dasht.

**116-mashq.** Aholining yashash maskanlarini nomlashda xalqning iqtisodiy turmush tarzi, shugʻullanuvchi kasb-kori ham hisobga olinadi. Vaqtlar oʻtishi bilan hunar, garchi oʻzgarib ketsa-da, joy nomlari saqlanib qoladi.

Eʼtibor be ring:

Miskarchilik, Koʻnchilik, Egarchi, Jiyakchi, Taqachi, Oʻqchi, Miltiqsoz, Boʻrchi, Ketmonchi, Charmgarguzar, Tandirchi, Sovungarlik.

Yuqoridagi qishloq nomlarini yozing. Har biri ishtirokida ikkitadan gap yozing. Ularning bittasi atoqli, ikkinchisi turdosh ot boʻlib kelsin. Oʻzingiz yashab turgan joy nomini, uning atrofidan oqib oʻtadigan daryo, soy, ariq, togʻ, koʻl, adir nomlarini daftaringizga yozing va ularni izohlang.

**117-mashq.** Joylarning nomlanishida qabila nomlari, joylarning relyefi hisobga olinadimi? Fikrning toʻgʻri, notoʻgʻriligini isbotlash uchun misollar yozing.

N a m u n a : Nayman, Jaloyir, Doʻrmon, Uzunkoʻcha, Balandqishloq, Chuqurkoʻcha kabi.

**118- mashq.** Qabristonlarning nomlanishiga misollar keltiring, izohini ayting. Namuna: Chigʻatoy qabristoni (Toshkent shahri), Mirpoʻstin ota (Andijon shahri), Tutlugʻ ota qabristoni (Xoʻjaobod tumani).

**119- mashq.** Oʻzbekcha ismlar tarkibida nomning oxiriga yoki oldiga qoʻshilib keluvchi lugʻaviy unsurlar ishtirokida soʻzlar yozing. bek, boy, bobo, buva, mir, mirza, xoʻja, qul, beka, bibi, begim, bonu, gul, oyim, poshsha, momo, sho.

**120-mashq.** Zamonaviy ismlarga alifbo tartibida misollar yozing.

**121-mashq.** Kishi ismini bildiruvchi qoʻshma otlarga misollar yozing va

ularning nutqda qo'llanishini tushuntiring.

*122-mashq.* O'zingiz yashaydigan (shahar, qishloq) tarkibiga kiruvchi ko'chalarning nomlarini yozing va izohlang.

*123-mashq.* Ko'chiring. Antroponimlar va toponimlarning ostiga chizing.

### CHO'QQI SARI INTILISH

Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahrida «Yil maktabi — 2009» ko'rik-tanlovining II bosqichi o'tkazildi.

Vohaning har bir tumanidan eng namunali 17 ta maktab vakillari faol qatnashgan ushbu tanlovda har bir maktab jamoasi tomonidan tayyorlangan ko'rgazmalar namoyish qilindi. Ularda maktab hayotidan olingan lavhalar, ilg'or ish tajribalaridan namunalar va joriy yilda tashkil qilingan markazlar haqida ma'lumot berilgan edi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi XTB xodimi Sodiq Raimberdiyev boshchiligidagi hakamlar hay'ati har bir maktab ishining mazmunini va faoliyatini to'g'ri baholab bordi.

Bunda ular maktabning moddiy-texnik bazasiga, pedagogik jamoa va o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning hisobotiga, o'quvchilarning darslik bilan ta'minlanganligi, DTS asosida o'quvchilarning fanlar bo'yicha samaradorligi, maktabda innovatsiya, yangi pedagogik texnologiyalarning joriy etilishi, o'quvchilarning to'garak va maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga jalb etilishi, o'quvchilarning fan olimpiadalariga, ko'rik-tanlovlarda ishtirok etishiga asosiy e'tiborni qaratdilar.

Tanlov natijasiga ko'ra, Nukus shahridagi Oqsunbo'1 opa Karakayeva rahbarlik qilayotgan 20-maktab 1-o'rinni egalladi, 2-o'ringa 2 ta maktab talabgor bo'ldi. Bular Taxtako'prik tumanidagi 6-maktab hamda Kegeyli tumanidagi 26-maktablardir. Qo'ng'irot tumanidagi 1 maktab, Mo'ynoq shahridagi 2-maktab, Xo'jayli tumanidagi 7-maktablar 3-o'ringa loyiq deb topildi.

G'olib maktablar munosib taqdirlandilar. Shunday qilib, Toshkentda o'tadigan «Yil maktabi — 2009» ko'rik-tanlovining so'nggi bosqichida ishtirok etish uchun Nukus shahrining 20-maktabiga yo'llanma berildi.

(«Ma'rifat» gazetasidan)

**124- mashq.** Kiyim-kechak mavzuviy guruhiga oid soʻzlarni toping va ularni ichki mazmun (bosh kiyimlar, poyabzallar, ust kiyim, ichki kiyimlar)iga koʻra ajrating.

N a m u n a :

roʻmol, durra, telpak, shapka, shlyapa — ayollarning bosh kiyimi.

**125- mashq.** Keng isteʼmoldagi quyidagi soʻzlarni guruhlar (odam va hayvon aʼzolari, tabiiy borliqqa oid hodisa, harakat va holatni ifodalovchi nomlar)ga ajratib koʻchiring.

Pishirmoq, boqmoq, gʻor, choʻqqi, tovon, toʻpiq, bosh, oyoq, yurmoq, turmoq, yer, quyosh, urmoq, yugurmoq, oy, suv, qoʻl, barmoq, tirnoq, chopmoq, havo, sakramoq, daryo, togʻ, jagʻ, boʻyin, tirsak, siljimoq, sudralmoq, soy, togʻ, choʻzilmoq, dara, qir, ogʻiz, jagʻ, oʻchmoq, ekmoq, dovon, choʻqqi, boqmoq.

### **Tayanch tushunchalar**

nomlanuvchi obyekt, onomastika (nomshunoslik), antroponim (shaxs nomlari), toponim (joy nomlari), zoonim (hayvon nomlari), gidronim (suv bilan bogʻliq boʻlgan nomlar).

Akademik litsey oʻquvchilari uchun moʻljallangan ushbu mashq va topshiriqlar ularning atoqli otlar mavzusi boʻyicha olgan bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Ammo kollej ona tili va adabiyoti darslarida talabalarga ushbu mavzu yuzasidan yetarli dars soatlari ajratilmagan. Bizning fikrimizcha, kollej talabalariga ham ushbu mavzu boʻyicha dars soatlarini koʻproq ajratish, berilgan materiallarni yanada kengaytirish, yaʼni atoqli otlar guruhlarini talabalarga alohida-alohida tarzda oʻrgatish maqsadga muvofiq. Chunki geografik nomlar tilshunoslikning boshqa sathlari, jumladan, etimologiya va soʻz yasalishi haqida ham boy maʼlumotlarni oʻzlarida mujassamlashtira olgan.



### **I.3. Maktab ona tili darslarida onomastik materiallardan foydalanish**

To'plangan onomastik materiallardan dars jarayonida foydalanish borasida ona tili boy imkoniyatlarga ega. Ona tili fanini o'rganish jarayonida ko'pgina antroponim, toponim, gidronim, etnonimlarga duch kelamiz. Darsda uchragan onomastik materiallar to'g'risida o'quvchilarga keng bilim berish ularning dunyoqarashini rivojlantiradi, o'lkamizga, ko'hna tariximizga bo'lgan mehr-muhabbatni oshiradi.

Har bir o'qituvchi o'rganiladigan mavzuning mazmunidan kelib chiqib, o'z o'lkasidagi onomastik nomlarni o'rganishi, ular haqida ma'lumot to'plashi va ulardan dars jarayonida, darsdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda foydalanishi, dars ta'lim - tarbiya saviyasini yanada oshiradi, o'quvchining o'zi yashayotgan hududdagi onomastik nomlariga qiziqishi ortadi.

Ona tili darslarida qo'shimcha material sifatida onomastik materialdan foydalanish mumkin.

Mavzularni o'rganish mobaynida joy nomlari, daryo nomlari, kishi nomlari ko'plab uchraydi. Bularni uchratish bilan o'quvchilarda beixtiyor savol tug'iladi. Bu nomlar qanday ma'nolarni anglatadi? Kimlar o'ylab chiqargan bu nomlarni? Bu nomlar qaysi tildan olingan? O'quvchilarning bu savollariga javob berish har bir o'qituvchining vazifasidir.

Ona tili darsida «Turdosh va atoqli otlar», «Kishi nomlari», «Ot yasovchi qo'shimchalar va ko'rsatkichlar», «Qo'shma otlarning yasalishi» kabi mavzularni o'rganayotganda ko'proq mahalliy onomastik nomlardan misollar keltirishimiz mumkin. Otlarni tuzilishi jihatdan turlarga ajratishda ham shunday yo'l tutgan ma'qul. Masalan: G'ozovot, Oyoq Do'rman, Xiva kabilar. Ichanqal'a, Qo'shko'pir, O'rtayop, Qoraqum kabi nomlar. Bizga ma'lumki, atoqli otlar yakka shaxs, muassasa, narsa - buyum, o'rin -joy. hayvon va mavjudotlarni ifodalab, ularning ayrimlarini alohida ajratib ko'rsatadigan nomlar atoqli otlar ekanligini o'quvchilar otlarning ma'no jihatdan turlariga bag'ishlangan dastlabki mashg'ulotdanoq bilib oladilar. Ta'limning

navbatdagi bosqichi o'quvchilarning atoqli otlar haqidagi bilimlarini kengaytirish, chuqurlashtirish va ular bilan bog'liq imlo qoidalarini o'rganish, to'g'ri yozish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

Atoqli otlarning tabiati to'g'risida tilshunoslikning onomastika bo'limi shug'ullanadi. Onomastika tilshunoslikning atoqli otlarni o'rganuvchi, ularning paydo bo'lishi va o'zgarishining tarixi, shuningdek, atoqli otlar majmuini ham anglatadi.<sup>23</sup> 2002-yilda nashr qilingan 6-sinf ona tili darsligida «Kishi ismlari» mavzusini o'tishga uch soat ajratilgan bo'lib, dars darslikdagi 190- mashqning topshirig'ini bajarish, berilgan matnni tahlil qilishdan boshlanadi. Mashqni bajarishdan oldin o'quvchilarga atoqli otlar, ularning atab olgan sohalari: antroponika, toponimika, gidronimika, zoonimika boshqalar haqida ma'lumot berib o'tilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

190- mashqda berilgan so'zlarni kishi nomlari va hayvonlarning shartli nomi kabi ikki guruhga ajaratish va guruhlarni mustaqil davom ettirish talab qilinadi. O'quvchilar mustaqil ishlab 1-guruhga shaxs nomi: Gulnoz, Roziya, Abdurahmon, Saodat, Ne'matulla, G'ulomov, Sharifa, Shamsiddin; 2-guruhga hayvon nomlari: Qoplon, To'rtko'z, Mosh, Olapar, Yo'lbars, Ziyrak kabilarga tasnif qiladilar, shaxslarga, uy hayvonlariga berilgan maxsus nomlar atoqli otlar atalishi va ular yozuvda hamma vaqt bosh (katta) harflar bilan boshlanishi tushuntiriladi<sup>24</sup>.

Kishi ismlari tilimiz lug'aviy boyligining ajralmas tarkibiy qismidir. O'zbek tili tarixiy davrlarda yuzaga kelgan xilma - xil ismlarga boy bo'lib, bu nomlar o'zbek xalqining uzoq madaniy va ma'naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridan hisoblanadi. Bu nomlarda xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l, xalqimizning orzu-umidlari, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, o'ziga xos rasm-rusmlari, farzandiga qaratilgan mehr-muhabbati o'z ifodasini topgan. Bularning barchasi ismlarga katta e'tibor bilan qarashni, to'g'ri talaffuz qilishni va to'g'ri yozishni talab

---

<sup>23</sup> Русский язык. Энциклопедия. Москва, 1979, С.179

<sup>24</sup> Ne'matov H va boshq. Ona ili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent-2002.

qiladi.<sup>25</sup>

Keyingi yillarda o'qitilayotgan, yangi nashr qilingan 6-sinf ona tili darsligi onomastikaga oid quyidagi mavzularni o'z ichiga oladi: «Atoqli otlarning turlari va imlosi», «Joy nomlari va ularning imlosi», «Tashkilot, korxona, muassasa nomlari», «Tarixiy sana va bayram nomlari», «suv havzalari va inshootlar nomlari»<sup>26</sup>.

«Atoqli otlarning turlari va imlosi» mavzusida topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar shaxs nomlari, o'rin-joy nomlari va narsa nomlarini ajratib oladilar. Bundan tashqari so'zlar ism, ota ismi, familiya, taxalluslarga bo'linishi, familiyalar shaxs ismidan so'ng otasining ismini qoldirish, otasining ismiga -ov(a), -yev(a) qo'shimchasini qo'shish bilan ifodalanishi fan o'qituvchisi tomonidan tushuntiriladi, tushuncha yuzasidan mashq va topshiriqlar bajariladi.

Darsning navbatdagi bosqichi atoqli otlar imlosini o'zlashtirishga qaratiladi. 267-mashqni bajarish orqali o'quvchilar o'zbek tilida ism va familiyalar yasaliishi va yozilishini bilib oladilar. Ismlarning tarkibida: Abdu-, -qul, -boy, -xon, -jon, -oy, -xo'ja, -bek, -bonu, -bibi, -yor, -berdi kabi qo'shimcha va so'zlarning qo'llanilish qoidalari bilan tanishadilar.<sup>27</sup>

«Atoqli otlarning aytilishi va yozilishi» mavzusini mahalliy, Xorazm shevalari sharoitida o'rganishda ma'lum qiyinchiliklar mavjud. Bunday qiyinchiliklarni o'z vaqtida Xorazm shevalarini mukammal tadqiq qilgan professor F. A. Abdullayev o'z ishlarida qayd qilgan.<sup>28</sup>

Ism tarkibidagi tovushlar o'zgarishi tufayli yuz beruvchi imloviy xatolarning shunday holatlarini ko'rsatish mumkin:

1. Ism tarkibidagi biror tovush mahalliy sharoitda boshqa bir tovush bilan almashiniladi: Farhod \ Parxod, Iso \ Isa, Sora \ Sara kabi.

2. Ismlar tarkibidagi biror tovush tushib qoladi: SHohnazar \ Shonazar, Anor \ Nor, Mengli \ Meli.

<sup>25</sup> Куронбоева Н. Тебрани бешик Хоразмда. Тошкент. "Чўлпон". 2002.

<sup>26</sup> N. Mahmudov va boshqalar. Ona tili. 6-sinf uchun darslik. Toshkent. "Tasvir". 2009.

<sup>27</sup> Қонгуров И. География дарсларида жой номлари// "Халқ таълими" журнали. 2000. 1сон, 61-62-бетлар.

<sup>28</sup> Абдуллаев Ф. Хоразм шеваляри. 1-том. Тошкент- 1961.Б.56.

3. Ism tarkibidagi biror tovush orttiriladi: Qari\\ Qarri.

4. Qo'shma ismlarning bir qismi qisqaradi: Berdimurod\\ Berdi, Muhammadrizo\\ Matrizo, Muhammaddiyor \\ Madyor, Muhammadniyoz \\ Matyoz.

5. Qo'shma ismning ikkinchi qismi qisqaradi: Norposhsha\\ Norposh,

6. Qo'shma otning har ikki qismida qisqarish yuz beradi: Qurbaniyoz Quryoz, Boboniyoz \\ Boboyoz, Xo'janiyoz \\ Xo'jyoz.

7. Ismlarni erkalash va kichraytirish tufayli qisqartma otlar vujudga keladi: Umrbek \\ Umish, Nilufar \\ Nilu, Muanbar \\ Manbar.

Mahalliy sheva ta'sirida sodir qilinadigan atoqli otlardagi kamchiliklarni yengil hazillashib, tanqid qilish orqali, ismlarni noto'g'ri talaffuz qilish so'zning ma'nosiga ta'sir qilishi, yozma ifodalashda ham chalkashliklarga olib kelishi, shu bilan birga, katta hurmatsizlik ekanligi ta'kidlanib, to'g'ri shakllarini qo'llashga hamisha da'vat qilib boriladi.

Mashg'ulotlarning tarkibiy qismi sifatida oila a'zolarining nomlarini yozish va ularga izoh berish topshiriladi. Mashg'ulotni shu tarzda o'quvchilarning faol ishtiroki bilan olib borish darsning turmush bilan bog'lanishini mustahkamlaydi, dars samaradorligini oshiradi.

Atoqli otlar ichida joy nomlari — toponimlar alohida o'rin tutadi, ular tilimiz lug'at boyligining salmoqli qismini tashkil qiladi. Toponimlar tilimizning lug'at tarkibida uzoq davrning mahsuli sifatida o'zbek tilining tarixiy leksikasi va dialektologiyasi, fonetikasini o'rganishda, so'z yasalashiga xos bir qator xususiyatlarni aniqlashda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday atamalar qatoriga qanday obyektlarning nomlari kirishi dars jarayonida o'quvchilarga qayd etib o'tiladi. Masalan, mamlakatlar va davlatlar nomlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Angliya, Amerika, Hindiston, Yaponiya); shahar nomlari (Xiva, Buxoro, Toshkent, Samarqand, Namangan); daryo va dengizlar nomlari (Amudaryo, Sirdaryo, Volga, Zarafshon, Orol dengizi, Kaspiy dengizi); tog' nomlari (Yugir, Qumaloq, Jiydaqishloq, Navbahor ko'chasi ) va boshqalar.

6-sinfda Turdosh va atoqli otlarni o'tish jarayonida otning turlari

o'quvchilarga atroflicha tushuntiriladi. Boshlang'ich sinflarda olingan bilimlar eslatiladi. Toponimlarning atoqli otlar ichida alohida o'ringa egaligi, bular tilimiz boyligining salmoqli qismini tashkil etishi ta'kidlanadi.

Mavzuni mustahkamlashda o'quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilish mumkin:

1. Respublikamiz hududidagi daryolardan qaysilarining nomlarini bilasiz?
2. O'zbekistonda nechta viloyat joylashgan va ular qanday nomlanadi?
3. Qaysi qishloq (mahalla, ko'cha) da yashaysiz? Uning nomi qanday bo'lgan?
4. Qo'shni qishloqlar nomini ayting?
5. Siz yashab turgan hududda qanday toponimlar uchraydi? Ularning nomlanishi haqida nimalar bilasiz?
6. Qo'shni Respublikalarning poytaxtlari nomini aytib bering.

Ushbu savollarga javob topish o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini o'stiradi.

Darsni mustahkamlash jarayonida joy nomlari bo'yicha didaktik o'yinlar o'tkazish ham darsning samaradorligini oshiradi. Bunda sinfni uch guruhga bo'lib, birinchi guruhga shahar nomlarini, ikkinchi guruhga qishloq va ko'chalar nomlarini, uchinchi guruhga esa daryo va dengizlar nomlarini topish va daftarlariga yozish topshiriq qilib beriladi. Qaysi guruh eng ko'p topgan bo'lsa, o'sha guruh g'olib bo'ladi.

Shuningdek, mazkur mavzu yuzasidan o'quvchilarni ijodiy izlanishga yo'naltirish uchun birinchi qatordagi o'quvchilarga «N» harfi bilan boshlanadigan toponimlarga misol topish va daftarlariga yozish topshiriq qilib berilishi mumkin.

Darsni mustahkamlashda yana bir o'yin o'tkazish mumkin. Bunda bir o'quvchi biror shahar nomini aytadi, keyin har bir o'quvchi aytilgan shahar nomining oxirgi harfi bilan boshlanadigan shaharlar nomini birin-ketin aytadi. Masalan: Farg'ona - Andijon - Namangan - Nukus - Samarqand. Toponimlarning ko'pchiligi tarkibiga ko'ra qo'shma so'zlardan tashkil

topgan bo‘lib (Yangiariq Yangibozor, Qo‘shko‘pir, O‘rtayop va boshqalar), sintaktik- leksik usul vositasida yuzaga kelgan. Sintaktik- leksik usul bilan so‘z yasaliishi so‘z birikmasining so‘z (leksema)ga aylanishi demakdir. Bunda til taraqqiyoti jarayonida ma’lum turdagi so‘z birikmasining leksik ma’no kasb etib, sintaktik birlikdan leksik birlikka aylanishi yuzaga keladi.<sup>29</sup> Masalan: Qoraqum, Yangiyop, Ayronko‘l, Ichano‘l, To‘rtko‘l kabi joy nomlari qo‘shma otlardir. So‘z yasaliishining bu usuli leksikalizatsiya usuli deb yuritiladi. Birikmalarning leksikalizatsiya vositasida qo‘shma toponimga aylanishini quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

1. Sifatlovchili (yoki bitishuv munosabatidagi) so‘z birikmalaridan iborat toponimlar: Qoraqum Yangiyo‘l, Yangiariq Yangibozor, Qorasuv, Sho‘rsuv kabilar.

2. Qaratqichli (yoki moslashuv munosabatidagi) so‘z birikmalaridan iborat qo‘shma toponimlar. Bunday qo‘shma nomlar qaratqichli so‘z birikmalarining soddalashuvi (ixchamlashuvi) natijasida yuzaga keladi. Qaratqichli birikmalar tarkibidagi qo‘shimchalarning tushib qolishi hodisasi ikki ko‘rinishga ega:

1) qaratqich va egalik qo‘shimchalar tushib qoladi: Xonning chorbog‘i- Xon chorbog‘i – Xoncharvoq; Do‘smatning cheki - Do‘smat cheki – Do‘smatchek, Boybo‘taning ko‘prigi - Boybo‘ta ko‘prigi - Boybo‘tako‘prik kabilar:

2) faqat qaratqich kelishigi qo‘shimchasi tushib qoladi, III shaxs egalik qo‘shimchasi esa saqlanadi: Ariqning boshi - Ariq boshi, Ko‘lning bo‘yi - Ko‘l bo‘yi kabilar.

3) to‘ldiruvchili (yoki boshqaruv munosabatidagi) so‘z birikmalarining qo‘shma toponimga aylanishi. Bunda deffiksatsiya, ya’ni - ni qo‘shimchasining tushishi hodisasi kuzatiladi: Oltinni topgan - Oltintopgan, Gazni qazgan - Gazqazgan, Soyni kechar - Soykechar toponimlari misol bo‘la oladi.

---

<sup>29</sup> Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. Тошкент. “Фан”. 1989.Б.78

Tilimizda gap shaklidagi sintaktik birliklarning qo'shma toponimga aylanishi hodisasi ham mavjud. Masalan, Qumbosdi. Mazkur joy nomi kelib chiqishiga ko'ra sodda yig'iq gap bo'lgan: qum - ega, bosdi - kesim. Ega + kesim aloqasini ifodalagan bunday nomlarning birinchi kesimi harakat obyektini, ikkinchi qismi harakatning o'zini bildirgan Soykeldi, Serqaqirildi toponimlari shular jumlasidandir. Qo'shma geografik nomlarning qismlari sifatida turli turkumga xos birikmalar qatnashadi. Chunonchi sifatlovchili birikmalar, ya'ni «sifatlovchi + sifatlanmish» aloqasidan tuzilgan qo'shma toponimlar quyidagi turkumdagi birliklarning birikishidan hosil bo'lgan:

- 1) «sifat+ot»: Yangiariq Yangibozor, Ko'nazey, Oqsuv, Oqoltin, Ko'lqamish, Ko'ktosh, Oqdaryo, Qorasuv, Kattabuloq va boshqalar;
- 2) «son+ot»: Beshariq, Beshyog'och, Uchtepa, Oltiariq, Mingbuloq, Oltiqoq, To'rtko'l va boshqalar;
- 3) «ot+ot»: Taxtako'priq, Sochtepa, Boltamozor, Qarg'aovul, Qumariq va boshqalar; «sifatdosh+ot»: Qaynarbuloq, Qaynarsoy, Kuyganyor, Kuygandaryo, Kuygantosh va boshqalar.

Qaratqichli birikmalar, ya'ni «qaratqich+qaralmish» munosabatidan kelib chiqqan qo'shma toponimlar ot bilan otning birikishidan tuzilgan: Avazko'l, Zoqirbuloq, Ahmadbuloq G'aniqishloq Xo'jarabot, Boychekeki singarilar.

To'ldiruvchili birikmalar, jumladan, «to'ldiruvchi + kesimdan» tarkib topgan, shuningdek, «ega+kesim»dan tuzilgan qo'shma toponimlar ot bilan fe'lining birikishidan vujudga kelgan: Oltintopgan, Otchopar, Loybosdi, Ilonbuzgan, Yo'ltushgan, Suvchiqdi, Toshkesgan, Suvbo'zgan, Takasakragan va boshqalar.<sup>30</sup>

Yuqoridagilardan anglashiladiki, tilimizdagi qo'shma toponimlarning ko'pchilik qismi so'z birikmalari zaminida yuzaga kelgan. Sifatlovchili

---

<sup>30</sup> Ҳоҗиев А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. Тошкент. "Фан". 1989. Б. 72.

(sifatlovchi+sifatlanmish), qaratqichli (qaratqich+qaralmish), to'ldiruvchili (to'ldiruvchi+kesim) so'z birikmalari hamda gap shaklidagi sintaktik birliklar qo'shma toponimga aylanganda, ularning qismlari orasidagi sintaktik aloqa butunlay yo'qoladi, ma'no va grammatik jihatdan yaxlit holga keladi, bir urg'uga ega bo'ladi.

Ona tili darslarida o'quvchilarga sintaktik-leksik usul bilan yasalgan qo'shma toponimlar haqida har tomonlama atroflicha bilim berish muhim ahamiyatga egadir. Jumladan, o'qituvchi 6-sinfda «So'z yasalishining yo'llari», «So'zlarni qo'shib so'z yasash», «Qo'shma otlarning yasalishi», «Qo'shma otlarning yozilishi» mavzularini tushuntirish jarayonida yuqorida bayon qilingan misollardan o'rni bilan foydalanishi mumkin.

6-sinfda o'qituvchi «Qo'shma otlarning yasalishi» mavzusi yuzasidan so'z birikmasi va shu birikma asosida yuzaga kelgan qo'shma joy nomlarini tushuntirish uchun ko'chma doskaga yozilgan quyidagi gaplardan foydalanishi

mumkin:

1. Nursux - katta qishloq, u bir necha mahallalardan tarkib topgan. Katta qishloq ko'm-ko'k vodiyni markazidan ancha uzoqda (I. Rahim).
2. Qishlog'imizdagi ariqdan doimo oq suv oqadi. Qashqadaryoning yirik dengizlaridan biri - Oqsuv daryosidir.
3. Kechqurun ko'l bo'yi dam oluvchilar bilan gavjum bo'ldi. Qishlog'imiz mahallalaridan biri Ko'lbo'yi deb ataladi.
4. So'lim Farg'onaning munis bag'rida, olti ariqdan suv ichgan qishloq. Qoldi Oltiariq - ota qishlog'im, ona shahrim Toshkent oldi bag'riga. (E. Majidov).

O'qituvchi mazkur gaplarni o'quvchilarga birin-ketin o'qitadi. Ular ajratib ko'rsatilgan katta qishloq oq suv, ko'l bo'yi, olti ariq birikmalari bilan Kattaqishloq, Oqsuv, Ko'lbo'yi, Oltiariq qo'shma otlarni ko'rsatadi. Ular o'rtasidagi farqni tushuntiradi. So'z birikmalari bilan aytilib, kichik harflar bilan yozilishini, qo'shma nomlar esa bosh urg'u bilan talaffuz qilinib, qismlari qo'shib yozilishini ta'kidlaydi. So'z birikmalari orasida



sintaktik aloqa bo'lishi, ular qo'shma otga aylangach, bu xususiyat yo'qolishini izohlaydi.

“Qo'shma otning yasalishi” mavzusida o'quvchilarga joy nomlarini o'rgatish uchun imkoniyat ko'p. Bunda qo'shma otlar orqali ifodalangan joy nomlari haqida to'liq ma'lumot beriladi. Leksikamizda qo'shma geografik nomlar salmog'i katta o'rin egallashi o'quvchilar ongiga yetkaziladi. Bunga misol qilib, Yangibozor, To'rtko'l, Tuyatortar, Zanjirbog' kabilarni keltirish mumkin.

Qo'shma toponimlar qaysi so'z turkumidan yasalganligi jadvallar yordamida tushuntiriladi.

### **Qo'shma geografik nomlar**

1-jadval

| №  | Yasalishi                 | Misollar                                                                      |
|----|---------------------------|-------------------------------------------------------------------------------|
| 1. | Ot va otdan «ot+ot»       | Burchmulla, To'ytepa, Qilichbog', Zanjirbog', Jarqo'rg'on                     |
| 2. | Sifat va otdan «sifat+ot» | Yangibozor, Qoraguzar, Kattaqo'rg'on, Yangiariq, Olaqarg'a, Oqtaqir, Sho'rsuv |
| 3. | Ot va fe'ldan «ot+fe'l»   | Tuyatortar, Otchopar, Qumbosdi, Serkaqirildi                                  |
| 4. | Son va otdan «son+ot»     | Beshyog'och, To'rtko'l, Mingbuloq                                             |
| 5. | Fe'l va otdan «fe'l+ot»   | Kuyganyop, Qolgandaryo, Qaynarbuloq                                           |

Bu mavzuni mustahkamlash jarayonida izohli diktant o'tkazish mumkin. O'qituvchi Qizilsuv, Yettiterak, Jarqishloq, Chalaariq, Burchmulla, Tepaqo'rg'on, Yettisoy, Tangatopdi, Oqdaryo, Qaynarbuloq, Ko'kdala, kabi nomlarni o'qib beradi. So'ngra o'quvchilar Jarqishloq, Tepaqo'rg'on ot bilan otning; Qizilsuv, Chalaariq, Oqquduq, Ko'kdala sifat bilan otning; Yettiterak Yettisoy son bilan otdan; Qoryog'di ot bilan fe'ldan; Qaynarbuloq fe'l va otdanligini izohlab, har bir guruhdagi nomlarni daftarlariga alohida shaklda yozib boradilar. Asosiy e'tibor qo'shma ot bilan boshlangan atamalarning qo'shib yoki ajratib yozilishiga qaratiladi.

Dars jarayonida atoqli ot(nom)larni o'rganishda "Topqirlar bahsi", "Zinama-zina", "Teskari test", "Tezyurar", "Eshitamiz-u topamiz", "Xotira mashqi", "Videousul" kabi pedagogik texnologiya usullari va ta'limiy metodlardan foydalanish mumkin.

Masalan, dars jarayonida yangi berilgan ma'lumotlar "Teskari test" usulida mustahkamlanadi. Bu usul shartiga ko'ra, o'quvchilarga test savollari taqdim etiladi. Ular to'g'ri javobni "+", noto'g'ri javoblarni esa "-" ishorasi bilan belgilaydilar. Oddiy testdan farqi shundaki, to'g'ri javoblar uchta, noto'g'ri javob esa bitta bo'ladi:

Test savollari:

1. Shaxs nomlarini ko'rsating ?
  - a) Ne'matulla    "+"
  - b) Saodat        "+"
  - c) Samarqand    "-"
  - d) Xudoyorxon    "+"
2. Mamlakatimiz hududidagi joy nomlarini belgilang ?
  - a) Sirdaryo    "+"
  - b) Xorazm     "+"
  - c) Qibray      "+"
  - d) Arabiston    "-"

O'qituvchi darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholaydi va ularning

javoblaridagi o'ziga xos fikrlashlariga e'tibor qaratadi.

“Tezyurar usuli”. Bu usulga ko'ra har bir o'quvchi atoqli otlarga doir bittadan ma'lumot beradi. Shart shuki, bir marta aytilgan ma'lumot qayta aytilmasligi kerak.

“Eshitamiz-u topamiz” usuli. Bu usul shartiga ko'ra 5-6 ta o'quvchi sinf doskasi oldida shaxs yoki joy nomlariga doir ma'lumot aytadilar, qolgan o'quvchilar esa javobini topishadi.

Har bir o'qituvchi onomastik materialdan adabiyot darslarida ham foydalanishi mumkin. Chunonchi, biror bir shoir yoki yozuvchining asari haqida o'quvchilarga ma'lumot berayotgan vaqtda antroponim, toponim, gidronimlarga ham e'tibor berishi lozim. Chunki, ko'pgina o'quvchilar asarda uchraydigan nomlarning tarixi, etimologiyasini, ma'nosini bilmaydi. Asarda uchraydigan nomlarni tushuntirib, o'quvchilar yashab turgan joydagi nomlarning ayrimlariga izoh berib o'tilsa, dars saviyasi yanada oshadi va uning mazmuni boy bo'ladi, o'quvchining o'zi yashayotgan joyning nomlariga qiziqishi ortadi.

Bizga ma'lumki, har qanday badiiy adabiyot san'atning bir turi bo'lib, unda kishilar turmushi, hayot voqealari, tabiat, geografik joylar, ularning nomlari o'z aksini topadi. Bunga ko'plab misollarni keltirish mumkin. Masalan, Z.M.Boburning “Boburnoma”, M.Shayxzodaning “Jaloladdin Manguberdi”, Oybekning “Navoiy” asarlari bunga misol bo'la oladi. Joylar va ularning tarixini o'rganish sohasida muhim manbalardan biri Boburning “Boburnoma” asaridir. Shunisi e'tiborliki, Bobur o'zining bu asarida ko'plab joy nomlariga, toponimlarga ta'rif berib o'tgan, ularning ta'rifi, joylashgan geografik o'rni, chegaralarini bayon etgan, o'sha joyning o'simliklari va hayvonot dunyosi haqida to'liq ma'lumot bergan. Bunday misollarni ko'plab keltirishimiz mumkin.

Demak, maktablarning ona tili va adabiyot darslarida atoqli otlarga doir misollar o'quvchilarning boy tariximizga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga, fikrlashlarini kengaytirishga, vatanga hurmat tuyg'usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bob bo'yicha quyidagicha xulosalarni keltirishimiz mumkin:

1. Umuman olganda, tilshunoslikda atoqli otlarning umumnazariy muammolarini tadqiq etish sohasida yechimini kutayotgan muammolar juda ko'p. Bu esa kelgusida onomastikaga doir tadqiqotlarni yanada kuchaytirishni talab qiladi.
2. Oliy ta'lim tizimida onomastika sohasi o'qitilishining asosiy vazifasi nom qo'yish san'ati bo'lgan onomastikaning mamlakatda shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, onomastik birliklarni o'rganish metodlari haqida talabalarga zarur tushuncha va ma'lumotni berishdan iboratdir.
3. Jamiyat hayotida nomsiz bir narsani ikkinchi bir narsadan farqlab bo'lmaydi. Nomlar insonlar uchun ayrim ko'rsatish vazifasidir. Obyektlarni nomlash va nomlarni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy- nazariy hamda ilmiy-amaliy xarakterdagi ishlarni mustaqillik davri talablariga moslashtirish, zarur o'rinlarda ilmiy hamda ilmiy- ommaviy shakldagi tushuntirish ishlarini keng ko'lamda, ya'ni maktab va oliy o'quv yurtlari auditoriyalarida, korxona, tashkilot, turli kompaniya, jamoat joylarida amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. To'plangan onomastik materiallardan dars jarayonida foydalanish borasida ona tili boy imkoniyatlarga ega. Fanni o'rganish jarayonida ko'pgina antroponim, toponim, gidronim, etnonimlarga duch kelamiz.
4. O'qituvchilar uzluksiz ta'limning har bir bosqichida atoqli otlar mavzusining samarali o'tishi uchun o'zbek tilshunosligining mazkur mavzusiga aloqador qator ilmiy-nazariy ma'lumotlarga ega bo'lishlari kerak.

### **III BOB. DARSDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL QILISHDA ONOMASTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH**

#### **III.1. Sinfdan tashqari ishlarda onomastika**

Umumta'lim o'rta maktablarida o'qituvchilar darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilar bilan turli xil ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib boradilar. Bunday ta'lim-tarbiyaviy tadbirlar, mashg'ulotlar sinfdan tashqari ishlar deb ataladi.

Sinfdan tashqari ishlar o'zining faoliyat ko'lami va boshqarilishi jihatdan ikki yo'nalishda ish ko'radi:

- 1) sinfdan tashqari ishlar;
- 2) maktabdan tashqari ishlar.

Maktabdan tashqari ishlar maxsus tashkil etilgan muassasalar tomonidan uyushtiriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlaridan iborat bo'lib, ularda olib boriladigan ta'lim-tarbiyaviy ishlar bizning mavzu doiramizga kirmaydi.

Ta'lim-tarbiya nazariyasining umumiy masalalari sifatida sinfdan tashqari ishlar metodikasi ancha ilmiy-metodik ishlangan bo'lishiga qaramasdan ona tili predmetini o'qitishda sinfdan tashqari ishlarning olib borilishi ancha keng tatbiq etila boshlandi. Sinfdan tashqari ishlar metodikasi masalalari rus tilini o'qitish metodikasi ishlarida ancha batafsil ishlangan. Shu o'rinda ko'zga ko'ringan rus metodisti Akademik A.V.Tekuchevning «Методика русского языка в средней школе» kitobini alohida qayd qilish lozim.<sup>31</sup>

O'zbekiston maktablarida ona tili o'qitishda sinfdan tashqari ishlarga o'tgan asrning 70-yillarida ahamiyat berila boshlandi. Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetida «O'zbek tili o'qitish metodikasi» ta'lim dasturiga kiritilib, birinchi marta dotsent N.Abduraxmanovning «O'zbek tili o'qitish metodikasi» o'quv qo'llanmasida maxsus mavzu sifatida qisqa ravishda yoritildi<sup>32</sup>.

Qo'llanmada sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari xususida to'xtalib, «O'quvchilarning bilim doiralarini yanada kengaytirish, bilim

<sup>31</sup> Текучев А.В. Методика русского языка в средней школе. Москва. Просвещение. 1980. С.48.

<sup>32</sup> Абдурахмонов Н. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. Самарқанд. 1969. Б.3.

saviyasini ko'tarish, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash uchun sinfdan tashqari olib boriladigan ishlar ham alohida o'rin egallaydi» deb ko'rsatiladi.<sup>33</sup>

Qo'llanmada sinfdan tashqari ishlarga ko'rsatmalar berilib, ularning turlari, tashkil qilish yo'l-yo'riqlari, maktabda ona tili to'garagining ishi, uni tashkil qilish kabi masalalarga to'xtaladi. Biroq mazkur ko'rsatmalarni rasmiy hujjatlar deb bo'lmaydi, chunki tadbir va ish shakllari juda umumiy va mavhum qilib berilgan.

Materiallar ichida Z.Do'simov tomonidan e'lon qilingan «Maktabda toponimik to'garaklar» maqolasini ko'rsatish mumkin. Maqolada ona tilidan sinfdan tashqari ishlarning ommaviy mashg'ulot shakllaridan biri bo'lgan toponimik to'garak, uni tashkil qilishning maqsad va vazifalari, ishlarini rejalashtirish, mashg'ulotlarni tashkil qilishning amaliy ko'rinishlari, mahalliy va darsliklarda berilgan ayrim toponimlarni tahlil qilish, ma'nolarini aniqlash namunalari, toponimikaga bag'ishlangan maktab devoriy gazetalarini chiqarish, munozaralar tashkil etish kabi tadbirlar izchil bayon qilinadi. Bu mavzu keyingi davrlarda qator talaba va o'qituvchilar tomonidan davom qildirilib, yangi-yangi materiallar bilan boyitildi.<sup>34</sup> Biz mazkur ishimizda sinfdan tashqari ishlarda onomastik materiallardan foydalanish, onomastika to'garaklari, onomastik viktorinalar, onomastik nomlarni to'plash usullari va nomlar kartotekasini tashkil qilish, nomlarning «Qizil kitobi»ni tashkil qilish kabi masalalar haqida to'xtalamiz.

Keyingi davrlarda xalq ta'limida, xususan, umumta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitish borasida olib borayotgan tub o'zgarishlar, shubhasiz, ona tilida sinfdan tashqari ishlarda ham tubdan o'zgartirishlar kiritishni taqozo qilmoqda.

Bunday o'zgarishlar sinfdan tashqari ishlarning mazmunida ham tashkiliy shakllarda ham olib borilishi nazarda tutiladi. Respublikamizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov

---

<sup>33</sup> .Ўша китоб. Б.112.

<sup>34</sup>Дўсимов З. Топонимика асослари. Тошкент, 2002, 88-бет.

mamlakatimizda «Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur»ning amalga oshirilishi juda muhim ahamiyatga egaligini ta'kidlab, shunday vazifalarni ko'rsatgan edi. «Birinchi yangi o'quv yili boshlangunga qadar ta'lim tizimida mazkur tajriba qanday o'tayotganini va uning dastlabki natijalarini chuqur tahlil etib, ta'lim andozalari o'quv rejalari va dasturlari mazmuniga islohotlarning bosh maqsadidan kelib chiqib, ya'ni yangi avlodni kamol toptirishga qaratilgan zarur tuzatishlar kiritish darkor.

Ikkinchidan, yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarur.

Uchinchidan, yuqori malakali va pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e'tibor berish lozim. Kadrlar tayyorlashning sifati, erkin fikrlovchi shaxs - fuqaroni kamol toptirish ertaga sinfxonalar va auditoriyalarda kimlar dars va saboq berishiga bog'liq...».

Bu vazifalar bizning, bo'lg'usi barkamol avlod tarbiyachilari zimmasiga ham katta mas'uliyatlar yuklaydi. Shularni nazarda tutib, darsdan tashqari mashg'ulotlarda onomastik materialdan foydalanish va ularning samarasini ta'minlovchi qator masalalarni yoritishni ham asosiy maqsadimiz qilib belgiladik.

### **III.2. Ona tili to'garaklari**

Umumta'lim o'rta maktablarida ona tili to'garagini turli yo'nalishlarda tashkil qilish mumkin. 5-7 sinflarda ona tili to'garagi deb yuritilsa, 8-9 sinflarda ona tilining ma'lum bir bo'limlari, sohalari bo'yicha to'garak tashkil qilish mumkin. Masalan, turg'un so'z birikmalarini o'rganishga bag'ishlangan «Biz nima uchun shunday deymiz?», «So'z xususida so'z», «Onomastika», «Toponimika», «Nutq madaniyati» kabi nomlarda bo'lishi mumkin.

Har bir nomdagi to'garakning mazmunini ona tili o'qituvchisi har tomonlama o'ylab ko'radi, qiziqarli materiallarning yetarli ekanligini inobatga oladi, o'qituvchilarning istak-xohishlarini ham, turmush uchun zarurligini ham inobatga oladi. Biz quyida «Onomastika to'garagi» haqida fikr yuritamiz.

Atoqli otlarning lisoniy xususiyatlari yuzasidan o'quvchilar 6 sinfda asosiy tushuncha va bilimlarini oladilar, dastlabki ko'nikma va malakalarni hosil qiladilar. Ammo o'quvchilar ham, ona tili va adabiyoti o'qituvchilari, shuningdek, boshqa fanlarning o'qituvchilari ham bundan keyingi ta'lim jarayonida tabiiyki, yana ko'pdan ko'p onomastik materiallar- turli sohalardagi atoqli otlarga duch kelaveradilar. Bunday ta'lim-tarbiya sharoiti esa, shubhasiz, onomastik materiallarni o'rganish xususidagi o'quvchilarning bilim va tushunchalarini yangi sharoitlarda kengaytirib va chuqurlashtirib borishni taqozo qiladi.

Biroq bu boradagi ta'limni yangi bosqichda kim olib borishi kerak, degan savol tug'iladi. Shubhasiz, bundan keyingi onomastik ta'lim ham ona tili o'qituvchisining zimmasiga tushadi. Chunki Respublikamizdagi oliy o'quv yurtlari, filologiya fakultetlaridagina mutaxassislar «Umumiy onomastika», «O'zbekiston toponimikasi» kabi maxsus kurslarni o'qib ixtisosliklarini kengaytirib, oliy o'quv yurtini bitirib chiqmoqdalar. Ilmiy - nazariy jihatdan, shuningdek, tayyorgarligi yetarli bo'lganligi sababli, bu mas'uliyatli ishga, uni muvaffaqiyatli uddalashga faqat ona tili o'qituvchilarigina qodirdir.

Demak, umumta'lim maktablari, ixtisoslashgan akademik litseylari ona tili va adabiyoti fanlari o'qituvchilarining bundan keyingi ta'lim bosqichidagi vazifalari yanada kengayadi, ya'ni o'quvchilarning oltinchi sinfda atoqli otlar xususida egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslangan va tayangan holda boshqa qator fanlarni o'qish jarayonida kuzatiladigan atoqli otlarga o'quvchilarning e'tiborini qaratib, ularning xususiyatlarini o'rganish bo'yicha berilgan bilimlarni takrorlatib, yanada kengaytirib borishdan iborat.

Navbatdagi bosqichda o'quvchilarga onomastika bo'yicha dasturiy bilim berilmaydi. Balki o'quvchilarning oltinchi sinfda atoqli otlar yuzasidan olgan bilim va tushunchalariga suyangan holda, ularni mustahkamlash bo'yicha tadbirlar olib borish kerak bo'ladi. Bundan keyingi davrda umumiy ta'lim maktablari o'qituvchilari oldida onomastik materiallarini o'rganish bo'yicha ikkita imkoniyat



bor: 1) o'quvchilarning atoqli otlar borasidagi bilim va ko'nikmalarini sinfdan tashqari mashg'ulotlar - fan to'garagi - «Onomastika to'garagi» faoliyati vositasida davom qildirish; 2) maktabda fan o'qituvchilari o'rtasida onomastik ta'lim bo'yicha ma'rifiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish, ya'ni maktabda fanlar bo'yicha tuzilgan metod birlashma mashg'ulotlari, metodik - amaliy seminar mashg'ulotlari, anjumanlar tashkil qilish, pedagogik o'qishlar, vaqtli matbuot nashrlarida onomastik ta'limga doir ilmiy - metodik ma'ruzalar o'qish, maqolalar e'lon qilish orqali keng o'qituvchilar o'rtasida izchil va sistemali ravishda tashviqot va targ'ibot ishlari olib borish yo'llari bilan onomastik ta'lim – tarbiya amalga oshiriladi.

Umumta'lim o'rta maktablari sharoitida mazkur tadbirlarning amalga oshirilishini uslubiyat va amaliyot nuqtayi nazaridan alohida - alohida ko'rib chiqamiz.

**Maktabda onomastika to'garagi faoliyati.** Onomastik materiallarning kishilar turmushi, ijtimoiy hayot, tarixiy davrlar va insonlarning istiqomat maskanlari, o'rin - joy hududlari, shuningdek, maktab ta'limidagi har bir fan bilan tabiiy ravishda bog'liq ekanligi; onomastik materiallarning juda rang - barang hamda qiziqarli bo'lganligi; buning ustiga, tashabbuskor, o'z sohasining bilimdoni, mukammal kasbiy mahoratli o'qituvchining tadbirkorligini e'tiborga olsak, atoqli otlar borasidagi bilimlarni egallashga bo'lgan o'quvchilarning intilishi hamisha kuchli bo'ladi. Ana shu shart - sharoitning o'zi ona tili va adabiyoti o'qituvchisi oldiga tilshunoslik bo'yicha to'garak tashkil qilishdek hayotiy, o'ta zarur va muhim vazifani qo'yadi.

Tanlagan mavzu doirasida fan to'garagini «Onomastika to'garagi» deb nomlagan ma'qul. Chunki onomastika maktabda o'qitiladigan barcha fanlar yo'nalishlaridagi atoqli otlar bilan ta'lim- tarbiyaviy ish olib borish imkonini beradi. Bundan tashqari onomastika fani yo'nalishlarining barchasi uchun umumiy mushtarak bo'lgan jihatlari juda ko'p. Mazkur jihatlarga ularni o'rganishning maqsad va vazifalari, ilmiy tadqiqot usullarini, yasalishi va tuzilishini o'rganish, to'g'ri talaffuz va imlosini belgilash, nomlanish asoslarini

aniqlash, tahlil qilish usullari, amaliy ahamiyatini ko'rsatish kabi holatlarni kiritish mumkin.

O'quvchilarning fan to'garaklari maktabda sinfdan tashqari olib boriladigan ta'lim- tarbiya ishlarining eng ko'p qo'llaniladigan mashg'ulot shakllaridan biridir. To'garaklar umumiy maqsad va intilishlari bir xil bo'lib fan o'qituvchisi rahbarligida faollik ko'rsatadigan o'quvchilar jamoasi guruhidir. To'garak odatda bir sinf yoki yonma - yon (parallel) sinflarning yoki bo'lmasa aralash (pastki va yuqori) sinflarning 10 nafardan 20 nafargacha bo'lgan, ona tili faniga qiziqishlari, istak-orzulari va qobiliyatlarini namoyon qilgan fanlarni yaxshi o'zlashtirib kelayotgan o'quvchilardan tashkil qilinadi. To'garak tarkibi haddan tashqari katta bo'lmasligi kerak, chunki o'quvchilar jamoasi katta bo'lsa to'garak ishini qiyinlashtiradi.

To'garakkka o'z fanini biladigan va sevadigan, mashg'ulotlarga ijodkorlik va tashabbuskorlik bilan yondashadigan, g'ayratli ona tili va adabiyoti o'qituvchisi rahbar qilib tayinlanadi.

To'garak a'zolarining birinchi tashkiliy majlisida o'quvchilar orasidan to'garak boshlig'i saylanadi. To'garak a'zolari ko'pchilikni tashkil qilsa (yigirmatacha bo'lsa) uch o'quvchidan iborat qo'mita saylanadi. To'garak rahbari butun o'quv yili uchun ona tili fani ta'limi dasturi asosida mashg'ulotlar rejasini tuzadi. Rejada to'garakning maqsad-vazifalari o'rganiladigan mavzular va ularni o'tish muddati har bir mavzuning qisqacha mazmuni, uning bajarilishi uchun mas'ul to'garak a'zosi aniq belgilab qo'yiladi.

To'garak mashg'ulotlarini har oyda ikki marta (oyning 2 va 4 haftalarida) o'tkazish maqsadga muvofiqdir. To'garak mashg'ulotlarining o'tishi va rejalashtirilgan tadbirlarning bajarilishi to'garak rahbari (yoki boshlig'i) tomonidan to'garak jurnaliga qayd qilib boriladi.

«Onomastika to'garagi» ish rejasining mazmuni maktab ona tili fani, ya'ni ona tili ta'lim dasturi mavzularini takrorlamasligi kerak. Chunki bizning

onomastika to'garagimizning asosiy maqsadi- to'garak a'zolarining tanlangan yo'nalish materiallarini amalda o'rganish orqali o'quvchilarni fanni o'zlashtirishga qiziqtirish, shu sohadagi bilimlarini kengaytirish, boyitish va chuqurlashtirish, shuningdek, ularni mustaqil ishlashga o'rgatish, ularda ko'nikma va malakalar hosil qilishdan iboratdir.

Onomastika to'garagida mashg'ulotlar to'garak rahbarining maqsadli suhbatlari, to'garak a'zolarining bajargan amaliy ishlari bo'yicha axborotlarni eshitish, ilmiy, ijodiy izlanishlar bo'yicha referat va bayonnomalar tayyorlatish, ma'ruzalarini tinglash, muhokama qilish; amaliy ishlardan - onomastikaning turli yo'nalishlari bo'yicha materiallar to'platish, ularni tahlil qildirish, guruhlatish, lisoniy jihatlarini o'rganish, xulosalar chiqarish kabilar asosiy ta'lim tarbiya usullari hisoblanadi. Onomastika to'garagining devoriy gazetasini, axborotlar byulletenlarini muntazam chiqarib turish, tilshunos, adabiyotshunos olimlar bilan to'garak a'zolarining uchrashuvlarini tashkil qilish, onomastik materiallarni yig'ish maqsadida sayohatlar uyushtirish, tematik anjumanlar tashkil qilish kabi tadbirlar ham to'garak faoliyatining ommaviy mashg'ulot shakllari bo'lib xizmat qiladi.

Shulardan «Toponimika» to'garagi faoliyatini ko'rib o'taylik.

O'quvchilar boshlang'ich sinflarda «Tabiat», 5-sinflardan esa «Tabiiy geografiya» fanlarini o'rgana boshlaydilar. Tabiiy geografiyada atrofimizdagi tuman, shaharlar, daryo-dengizlar, dasht va tog'larni o'rganib, O'zbekistonning tabiati bilan tanishadilar. Bu borada o'quvchilar turli tuman nomlarga duch keladilar. Bunday joy nomlarining ayrimlari ma'lum bir ma'no anglatmasa, boshqalarning nomlari ma'no anglatmasligi mumkin.

Shunday vaziyatda o'qituvchi bir - ikki geografik nomning tuzilishi, yasalishi yoki ma'nolarini aytib bersa, o'quvchilarda joy nomlarini o'rganishga ham qiziqish ortadi. O'quvchilarning ana shu qiziqishlarini hisobga olib, maktabda «Toponomika» to'garagi tuzish mumkin. Geografik nomlar etimologiya (so'zlarning kelib chiqishi) va so'z yasalishi haqida juda boy ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shuning uchun o'quvchilarni

etimologik tahlilga o'rgatishda toponimika to'garaklarining ahamiyati katta.<sup>35</sup>

Geografik nomlar, ayniqsa , mahalliy joy nomlarining etimologiyasi bilan tanishtirish o'quvchilarga, birinchidan, joy nomlarining asosli esda qolishiga yordam beradi, ikkinchidan, so'zlarning yasalishi haqida ma'lumotlar oladi, uchinchidan, etimologik tahlil ko'nikmalari rivojlanadi. Oqibat natijada o'quvchi har bir so'z va iboraga o'ylanib ehtiyotkorlik bilan qaraydi. Ularning ma'no- mazmunini bilishga qiziqadi.

To'garak mashg'ulotlari kirish darslari bilan boshlanib, o'quvchilarga geografik nomlarni o'rganadigan fan haqida dastlabki tushunchalar berish, joy nomlarining xususiyatlari, ularning har biri o'zgarishlarga uchrashi , ular haqida har xil qiziqarli rivoyatlar, afsonalar, xalq xotirasi va og'zaki ijodida saqlanib kelinayotganligi kabi masalalarga to'garak a'zolarining e'tibori qaratiladi. To'garak mashg'ulotlari kichik – kichik mavzular, ixcham bir shaklda bayon qilish, sharxlab berish, isbot qilish yo'li bilan tushuntiriladi. Qisqagina ma'ruza dastlabki paytda o'qituvchi, navbatdagi mashg'ulotlarda esa to'garak a'zolari tomonidan tayyorlanib , o'quvchilar olib boradi.

Bizning sharoitda toponimik nomlarning tahlilini mahalliy nomlardan boshlash yaxshi natijalarni beradi. Masalan, Qo'shko'pir tumani nomini tahlil qilish mumkin. "Qo'shko'pir" atamasining kelib chiqishi xususida tarix fanlari nomzodi R. Masharipovning "Moziy sadolari va saboqlari" kitobi ma'lumotlaridan foydalaniladi.

Qo'shko'pir - bu qadimiy qal'aning nomi bo'lib, uning ko'prik bilan bog'lanib qolganligiga kelsak, 1911-yilgacha qal'a ichida G'ozovot kanaliga qurilgan ikkita ko'prik mavjud edi. Xiva xoni Isfandiyorxonning topshirig'iga binoan 1911- yilda ruslar shu yog'och ko'priklar yoniga temirdan ko'prik quradilar. ...Hamyurtlarimizning ko'pchiligi uning nomini ana shu oldingi ikkita ko'prik , qo'sha ko'prik ma'nosida "Qo'shko'pir" deb talaffuz qiladilar.

Bu xususda xalq etimologiyasi ham bor. Bu rivoyatga ko'ra:

---

<sup>35</sup> Дўсимов З. Тиллаева М. Топонимика асослари. -Т. "Фан". 2002.Б.56.

G'ozovot kanali qal'ani qoq ikkiga bo'lib oqib o'tadi. Kanalning har ikki qirg'og'ida ham unumdor yerlarga dehqonchilik qilingan. Ekin-tikinda asosiy qurol ho'kiz qo'shiladigan omoch edi. Ana shu omochni o'ng qirg'oqdan chap qirg'oqqa, chap qirg'oqdan o'ng qirg'oqqa olib o'tish uchun dehqonlar kanal ustiga oyoq ko'prik qurganlar. Undan qo'shni olib o'tishda foydalanganlar. Shu kichik ko'prikdan qal'ani nomi kelib chiqqan deyiladi.<sup>36</sup>

To'garak mashg'ulotining navbatdagi mashg'ulotlaridan birida tumandagi yana bir qishloq nomining kelib chiqishini to'garak a'zolaridan biriga kichkina ma'ruza qilishga beriladi. Buning uchun to'garak rahbari mavzuni ilmiy asoslash uchun o'quvchilarga manbalarni aniq ko'rsatadi, qayerdan topish mumkinligini aytadi yoki o'zi topib berpdi. Ma'ruzani bir o'quvchi tayyorlasa ham, boshqa a'zolariga ham mashg'ulotning maqsadi, bajariladigan ishlar batafsil tushuntiriladi. Maqsad- to'garak mashg'uloti ishida barcha a'zolar faollik ko'rsatsin.

Masalan, "Qatag'on" qishlog'ining nomi yuzasidan shunday materialdan foydalandik:

"Qatag'on" turkiy xalqlar urug'ining birinchi nomi bo'lib, ular Chingizxondan olti avlod ilgari Mo'g'uliston va Oltoy o'lkasi o'rtasidagi Enasoy daryosi bo'ylarida yashagan turkiy xalqlarning bir urug'i hisoblanadi. Asosiy mashg'uloti ovchilik va chorvachilik bo'lib, mollarni asrashga qulay, sero't yaylovlar axtarib, hozirgi Markaziy Osiyo hududlariga siljib kelganlar va turli elatlarga tarqalib ketganlar.

Qatag'on urug'ining bir guruhi XVI asr turkiy urug'larning ommaviy ravishda g'arbiy hududlarga ko'chishi davrida hozirgi o'zlari istiqomat qilayotgan maskanga kelib o'rnatilib qolganlar. Atrofdagi aholi ularni "qatag'onlar" deb ataganlar. Bu qishloqning janubiy hududi G'ozovotyop bilan, sharqiy hududlari Chuqurqum etaklarida joylashgan. Qatag'on hozirgi kunda o'zbek xalqining tarkibiy qismi sifatida barcha jabhalarda o'zining katta

---

<sup>36</sup> Р.Машарипов. Мозий садолари ва сабоқлари. -Тошкент.1998. Б.43.

mavqeyiga ega. Demak, “Qatag‘on” qadimgi urug‘ nomlaridan biri ekan. Shu asnoda o‘quvchilarga Qo‘shko‘pir tumani xaritasidan Qatag‘on qishlog‘ining joylashishini maxsus tayyorlab namoyish qilish mumkin.

Shuningdek, o‘quvchilarni Qo‘shko‘pir tumanining sharqiy hududlaridan boshlanib, g‘arbiy hududlarigacha kesib o‘tgan G‘azovotyop kanalining nomi ham qiziqtiradi.

Mo‘g‘ullar istilosigacha Madra deb nomlangan kanal mo‘g‘ullar istilosidan keyin qisqa vaqtlar Nosiriy deb tilga olinadi. G‘azovot kanal nomi sifatida birinchi marta Anushashohning o‘g‘li Arangxon davrida uchraydi. “G‘ozi” so‘zining lug‘aviy ma‘nosi “g‘olib” bo‘lib, turli ismlarga qo‘shilgan: Sultong‘ozi, Muhammadg‘ozi, Abulg‘ozi kabi.

Shuningdek, o‘quvchilarni Qo‘shko‘pir tumanining sharqiy hududlaridan kesib o‘tgan G‘azovotyop kanalining nomi ham qiziqtiradi.

Shunday qilib, Abulg‘ozixon davrida Madra kanali qazib uzaytirilib G‘azovot qal‘asigacha olib borilgan. Shu munosabat bilan yangi tiklangan kanal G‘azovotyop deb yuritila boshlangan.

Shunday qilib, toponomik to‘garaklarda faqat mahalliy mintaqalardagi joy yoki boshqa maskan nomlarinigina emas, balki O‘zbekiston jahon xaritasida, maktab darsliklarida uchraydigan nomlarning ham etimologiyasini asta-sekin, izchillik bilan o‘zgartirib borish lozim. Bunday tadbirlar to‘garak a‘zolarining fikrini o‘zgartiradi: nom qo‘yish, so‘z yasash usullarini amalda o‘zlashtirib oladilar.

### **Onomastik o‘yinlar (“O‘tkir zehnlilik bellashuvi”, “Viktorina”)**

O‘quvchilar o‘rtasida onomastikadan ommaviy tadbirlarning (devoriy gazeta, konkurs, viktorina, kecha va boshqalarning) to‘g‘ri va o‘rinli tashkil qilinishi o‘quvchilarning onomastik qiziqishini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning mustaqillik va ijodiy tashabbus ko‘rsatish qobiliyatini o‘stirishga katta imkon yaratadi. Biz bu o‘rinda onomastika bo‘yicha o‘tkaziladigan ommaviy tadbirlar – “O‘ZB” va viktorina kabi tadbirlarga doir o‘z tajribalarimizni bayon qilamiz.

**O'tkir zehnlilar bellashuvi ("O'ZB").** Onomastika to'garagi ishlarida o'quvchilar faolligini oshirishda muhim tadbirlardan biri o'tkir zehnlilar bellashuvini tashkil qilishdir.

Ma'lum sinflarda yoki parallel sinflarda onomastika ma'lum bo'lim materillari o'rganilgach, to'garak a'zolari va ommaviy sinflar o'quvchilarining bilim darajalarini sinash maqsadida to'garak guruhlari yoki parallel sinf o'quvchilari o'rtasida uyushtiriladi.

Bellashuv uyushtirilishidan oldin barcha o'quvchilar bellashuvning dasturi, mazmuni, hajmi, umumiy savollar va ularni bajarish tartiblari bilan tanishtiriladi. Bellashuvning yuqori hay'atini maktab ma'muriyati maktab direktorining ma'naviyat va ma'rifat bo'yicha muovini, ona tili va adabiyoti fanlari metod birlashma rahbari, oliy toifadagi o'qituvchilar tashkil qiladi. Yuqori hay'atning odilona, xolisona ishlashi har jihatdan ham muhimdir.

Bellashuvda qatnashayotgan jamoa (guruh)larga munosib nomlar qo'yiladi, an'anaviy tanishish, tabriklash bo'lib o'tadi va nihoyat, qat'iy reja va tartibda bellashuv tashkil qilinadi. Bahslashuvning tartibli va chiroyli chiqishi uchun unga jiddiy tayyorgarlik ko'riladi- yozish uchun xat taxtalar, bo'r, lattalar, shuningdek, zarur bo'ladigan boshqa narsa-predmet, jihozlar foydalanishga qulay bir tarzda tayyorlab qo'yiladi. Bahsga qatnashuvchilarning og'zaki va yozma nutqlariga, o'zlarini tuta olishlariga, erkin muomalaga kirisha olishlariga, muomala odobiga rioya qilishiga katta e'tibor beriladi. Bellashuv yuqori hay'atning baholarni e'lon qilish, g'oliblarini aniqlash, rag'batlantiruvchi mukofotlarni taqdim qilib, o'quvchilarning kelgusi o'qishlarida muvaffaqiyatlar tilab, bellashuv nihoyasiga yetadi.

### **Onomastik viktorinalar.**

Onomastik viktorinalar ma'lum mavzu, bo'lim yoki, umuman, onomastikaga tegishli masalalar bo'yicha savol-javob o'yini bo'lib, unda savollar og'zaki yoki yozma ravishda berilib, javoblar ham og'zaki yoki yozma tarzda olinadi. Onomastik viktorinalarni gazeta hamda maxsus varaqa orqali rahbar yoki yuqori hay'at o'tkazadi.

Onomastik viktorinaning mazmuniga qarab, darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'tkaziladi. Unda o'tiladigan materillarni takrorlash, o'quvchilarning onomastika bo'yicha olgan bilimini mustahkamlash maqsad qilib qo'yiladi. Binobarin, onomastik viktorina o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini o'stirish, ularning onomastik bilimlarini kengaytirib va onomastikaga bo'lgan qiziqishlarini yana ham oshirishda hamda o'quvchilarning onomastik adabiyotlar ustida mustaqil ishlash va ulardan kerakli masalani ajrata olishga o'rgatishda muhim ahamiyatga egadir.

Onomastik viktorinalar o'tkazish usullaridan ba'zilarini keltiramiz:

1. Savollar o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga beriladi. Javob berishni istagan o'quvchilar qo'l ko'taradilar. O'qituvchi yoki rahbar o'quvchilardan bir nechtasi qo'l ko'targuncha kutib turib, keyin birinchi bo'lib qo'l ko'targan o'quvchidan so'raydi. Agar o'quvchining javobi noto'g'ri bo'lsa, ikkinchi, uchinchi va hokazo qo'l ko'targan o'quvchilardan (to'g'ri javob olguncha) so'raladi. Bu usul bilan viktorina o'tkazganda o'quvchilar faol ishtirok qilib mashg'ulot jonli, qiziqarli o'tadi. Ammo bir necha o'quvchi barobar qo'l ko'targan vaqtda birinchilikni aniqlash bir oz qiyin bo'ladi.
2. Agar berilgan savolga javobni yozib ko'rsatish imkoni bo'lsa, o'qituvchi (yoki rahbar) o'quvchilarga javoblarni daftarlarga yozib, keyin qo'l ko'tarish kerakligini aytadi. O'qituvchi (yoki rahbar) qo'l ko'targan o'quvchilar oldiga borib, berilgan savolga javobini ko'radi. So'ng avval qo'l ko'targan o'quvchiga javobini aytishga ruxsat beradi. Bunda javob bergan o'quvchi bergan javobni tushuntirib beradi.
3. O'qituvchi (rahbar) doskaga viktorina uchun tayyorlab kelingan bir necha savollarni yozib, ularni yechish vaqti ochkosini belgilaydi. O'quvchilar o'z familiyasi va ismi yozilgan qog'ozga berilgan savollarning javobini yozib beradi. Keyin o'qituvchi (yoki rahbar) o'quvchilarning ishlarini uyiga olib ketib, (yoki tanaffus vaqtida) tekshirib, tegishli o'rinlarni belgilaydi va natijasini e'lon qiladi. Bunday usul bilan o'tkazilgan viktorinalar uchun, faqat javobi yoddan aytiladigan savollarni tanlamasdan, javobi biroz manbalarni



varaqlash bilan topiladigan savollarni ham olish kerak.

4. O'qituvchi (rahbar) uyida savollarni viktorinaga qadar nomer qo'yilgan kartochkalarga yozib keladi, bu kartochkalarda har qaysi savolning ochkosi ko'rsatiladi. Bu kartochkalar o'quvchilarga tarqatilib, javobini topish vaqti belgilanadi. Bundan oldin o'quvchi bir varaqdan qog'oz olib, unga familiyasini yozgan holda tayyor bo'lib o'tiradi. O'quvchilar kartochkalar olishlari bilanoq varaqqa kartochka nomerini qo'yib, undagi savollarning nomeri va uning to'g'risida javoblarni yozadilar. Ajratilgan vaqt tugashi bilan o'qituvchi (rahbar) kartochka va undagi savollarning javoblari yozilgan varaqlarni yig'ib, uyda tekshirib, birinchi, ikkinchi va hokazo o'rinlarni aniqlaydi.

5. Onomastik viktorina uchun maktab zalida maxsus doska ajratilib, unga har kuni ikki-beshtadan savollar yozilib, ularga javob berish vaqti ko'rsatiladi. Javoblar yozma ravishda doska yoniga osib qo'yilgan qutichaga tashlanadi. O'qituvchi (rahbar) javoblarni olib tekshiradi, tegishli o'rinlarni aniqlaydi va mukofotga taqdim qiladi. Bunday viktorinalarni bir necha kungacha davom ettirish mumkin.

Devoriy gazeta orqali ham viktorinalar o'tkazish mumkin. Bunda gazetaga viktorinaga oid savollar beriladi. Viktorina shartlari ko'rsatiladi va gazeta yaqiniga javoblar tashlash uchun maxsus quticha qo'yiladi.

Quyidagi onomastik viktorinalar o'tkazishda foydalangan savollardan ba'zilarini mavzular bo'yicha keltiramiz.

Toponomikaga doir viktorinalar o'tkazish uchun savollar:

1. Qishlog'ingizning nomi nima? Yana qanday nomlar bilan ataladi? Nima uchun shunday bo'lgan? Uning ma'nosi nimani ifodalaydi?

2. Shahringizning nomi nima? U yana qanday nomlar bilan nomlangan? Ular qanday ma'nolarni ifodalaydi?

3. Mahallangizning nomi nima? U qanday ma'noni anglatadi? Mahallangiz yana qanday nomlar bilan ataladi? Nima uchun?

4. Shahringiz qanday qismlarga bo'lingan? Bu bo'lingan qismlarning nomlari

nima? Ular anglatib kelayotgan ma'nolarni bilasizmi?

5. Siz yashayotgan joyda qanday daryolar, ariqlar, ko'llar bor. Ularning nomlarini bilasizmi?

6. Buloqlarning nomlari bormi? Ular nimani anglatadi? Buloq va chashma nomlari siz yashayotgan hududda bir xil ma'noda ishlatiladimi?

7. Kanal bormi? Uning nomi nima? Nega shunday atalgan?

8. Daryo, ariq hamda kanallar ko'priki bormi? Uning nomi nima? Ko'prikning nomi qanday ma'noni anglatadi.

9. Quduqlarning nomi bormi? Ularning qanday turlarini bilasiz?

10. Hovuzlarning nomlarini bilasizmi? Ular hozirgi kunda ham mavjudmi?

### **III.3. Nomlarni to'plash usullari va nomlar kartotekasini tashkil qilish**

Onomastikani o'rganish ma'lumot to'plashdan boshlanadi. Bu ish odatda o'lkashunoslik bo'yicha olib borilayotgan qishloq, ovul, keyinchalik tuman hamda viloyat va nihoyat, jonajon o'lka miqyosida amalga oshiriladi.

Onomastik material yig'ishdan oldin materiallarni qanday va qayerdan to'plash hamda kimlar bilan qanday mavzuda suhbatlar o'tkazishning hech bo'lmaganda taxminiy ish rejasi va dasturi ishlab chiqilishi shart. Mana shu reja asosida puxta tayyorgarlik ishlari olib boriladi.

Yuqorida aytib o'tilgan ishlarni maktabda ham tashkil qilish mumkin. Onomastik materillar to'plash va o'rganishda tarix, geografiya, inson va jamiyat fanlari o'qituvchilari bilan tilshunoslarning hamkorlikda ishlashi muhim ahamiyatga ega. Biz bu o'rinda onomastika tarkibiga kiruvchi joy nomlarini to'plash usullari va nomlar kartotekasini tashkil qilish to'g'risida fikr yuritamiz. Bunda o'qituvchi joy nomlarini to'plash bo'yicha so'roqlikni o'quvchilarga uyga vazifa qilib yoki bo'lmasa, to'garak mashg'ulotlarida topshiriq qilib berishi mumkin.

Joy nomlarini to'plash bo'yicha so'roqlik quyidagicha tuzilishi mumkin:

I. Nomni kimdan yozib olgansiz? (Manzili, yoshi, kasbi).

## **II. Qishloqlar va qishloqqa aloqador bo'lgan nomlar:**

1. Siz yashayotgan qishloq nomi, qadimgi va hozirgi nomi.
2. Qaysi mahallaga qaraydi?
3. Qishlog'ingiz nega shunday nomlangan?
4. Qishlog'ingizning ichki bo'linishi?
5. Qadimgi qal'alar nomi?
6. Qadimgi qo'rg'onlar nomi?
7. Siz qaysi bozordan harid qilasiz, uni nomi qanday?
8. Qishloq aholi biror munosabat bilan yig'iladigan joy nomi?
9. Qabriston va mozorlar nomlari, u yerda dafn qilingan tarixiy, afsonaviy shaxslar nomi, ular haqida nimalarni bilasiz?
10. Qishlog'ingizga yaqin daryo va irmoqlar nomlari?
11. Anhor, soy, kanal, jilg'a, ariq nomlari.
12. Buloq, chashma, hovuz nomlari.
13. Zekash nomlari.
14. Qurib qolgan daryo, o'zanlarning nomlari.
15. Anhor va ariqlardagi kechuvlarning nomlari.
16. Daryo va anhorlardan kechuvlarning nomlari?
17. Ko'prik nomlari?
18. Ko'llar nomlari?
19. Botqoq va sho'r yerlar nomlari?
20. Qadimgi va hozirgi quduqlar nomi.
21. Sahrolar, cho'llar, taqir yerlar, dasht o'tlar nomi.
22. Yo'llar, so'qmoqlarning nomi.
23. O'rmon va to'qaylar nomi.
24. Tepaliklar va barxanlar (qum o'yilib qoladigan joy) nomlari.
25. Tog' nomlari.
26. Tog' cho'qqilari, daralari (tog'lar orasidagi joylar) nomlari.
27. Jarliklar nomi.
28. O'tloqlar, yaylovlar nomi.

29. Ekin maydonlarining nomi.
30. Ov qilinadigan joylarning nomi.
31. Urf-odatlar bilan bogʻliq joy nomlari.
32. Bogʻlar nomi.

### **III. Geografik terminlar.**

1. Aholi yashaydigan joylar nima deb ataladi?
2. Ular ichki jihatdan qanday boʻlinadi va qanday nomlanadi?
3. Dunyo tomonlari qanday nomlanadi?
4. Yil fasllari nomlari qanday nomlanadi?
5. Oy nomlari (qadimgi nomlari)?
6. Daryodan boshlanadigan suv nomi?
7. Katta ariqdan ajralib chiqadigan suv nomi?
8. Ekilmaydigan tuzli yerlar, shoʻr yerlar.
9. Suv bosib ketadigan pastlik yerlar qanday nomlanadi?
10. Qishloq chekkasi, chegarasi qanday nomlanadi?
11. Qor, yomgʻir suvlari toʻplanib turadigan joy nomi?
12. Suvni aylanib turadigan joy nomi nima deb ataladi?
13. Ariq va kanallarning boshlanish nomi?
14. Ular qoʻshilishi joylarining nomi?
15. Daryo va koʻl oʻrtasidagi quruqlik nomi?
16. Rang bildiruvchi soʻzlar (oq, koʻk, sariq maʼnolari).

Yuqorida soʻroqlik asosida oʻquvchilar tadqiqot ishlarini olib boradilar. Tadqiq ishlarini amalga oshirish jarayonida aholidan, keksalardan eshitgan hikoya, afsona va oʻtmish haqidagi suhbatlarni muntazam yozib boradigan maxsus daftar boʻlishi shart. Shundan soʻng soʻrash va suhbat natijasidan olingan maʼlumotlar asosida toponomik kartotekasini tuzishdir.

Joy nomlarining kartotekasi ikki xil boʻlishi mumkin:

1. Joy nomlarining markaziy (umumiy Respublika) kartotekasi;
2. Joy nomlarining mintaqaviy(regional) kartotekalari.

Joy nomlarining markaziy kartotekasi butun Respublika hududida mavjud

bo‘lgan toponimlarning materiallari asosida tuziladi. Buni “O‘zbekiston toponimlarining markaziy kartotekasi” deb yuritish mumkin.

Joy nomlarining mahalliy kartotekasi biron bir viloyat, tuman, shahar yoki mintaqa hududidagi nomlar bo‘yicha tuziladi.

Shu sababli bunday kartotekani bir hudud toponomiyasiga oid ekaniga ko‘ra “Xorazm viloyati toponimlari kartotekasi”, “Namangan shahar toponimlari kartotekasi”, “Toshkent viloyati toponimlari kartotekasi” deb yuritish mumkin.

Demak, O‘zbekiston respublikasining butun hududidagi toponimlar bo‘yicha turli hajmdagi toponomik kartotekani tuzishda tegishli qonun va qoidalarda belgilab qo‘yilganidek davlatning maxsus va tashkilot va muassasalari ishtirok etadi. Masalan:

— Fizikaviy - jo‘g‘rofiy obyektlar bo‘yicha kartotekani O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, O‘zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Geodeziya va kartografiya boshqarmasi;

— Geologiya obyektlari bo‘yicha kartotekani O‘zbekiston Respublikasi Geologiya va mineral resurslar davlat qo‘mitasi;

— Tabiatni muhofaza qilish obyektlari bo‘yicha kartotekani O‘zbekiston Respublikasi davlat tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi;

— Har bir viloyat, tuman yoki yirik shaharlar toponomiyasi majmui bo‘yicha tegishli hudud hokimlari qoshidagi toponomiya komissiyalari kartotekalar tuzishlari lozim. Shuningdek, joy nomlarining kartotekalarini tuzish bilan alohida shaxslar, madaniy-ma‘rifiy jamiyatlar, ilmiy tadqiqot muassasalari, oliy o‘quv yurtlari, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va boshqalar shug‘ullanishi mumkin.

Yuqorida keltirilgan kartoteka va katologlarning tuzilishi butun Respublika hududidagi ulkan toponomik boylikni to‘plash, uni ma‘lum bir tartibga solishga imkon beradi. Joy nomlarining kartotekasi va unda mujassamlangan toponomik ma‘lumotlar o‘zbek tilining ulkan ilmiy va amaliy qimmatga ega bo‘lgan boyligi, xalq tarixi, madaniyati va ma‘naviyatining betakror xususiyatlari o‘z mujassamini topgan qimmatli manba sifatida

baholanishi mumkin.

Toponimlarning kartotekasidan quyidagi o‘rinlarda foydalanish mumkin:

—O‘zbekiston toponimiyasining markaziy kartotekasini tuzish va uni to‘ldirib borish uchun;

—O‘zbekiston toponimlari “Qizil kitobi” ni tuzish va uni to‘ldirib borish uchun;

—O‘zbekiston Respublikasining fizikaviy-jo‘g‘rofiy va boshqa xil xaritalarini tuzish yoki ularga tegishli o‘zgarishlar kiritib borish uchun;

—Pochta-telegraf, transportga oid ma’lumotlar, qo‘llanmalar va hujjatlar shuningdek, davlatning boshqa xil rasmiy yozma manbalariga tegishli o‘zgarishlar kiritish uchun;

—Joylarni nomlash qonuniyatlarini, bu borada paydo bo‘ladigan yangi an’analarni o‘rganish va ilmiy umumlashtirish uchun, bu masalada, istiqbolli ilmiy farazlar qilish uchun;

—Joy nomlarining imlosi bundagi turli nuqsonlarni bartaraf qilish masalalarini hal qilish, joy nomlarining izohli, ikki tilli, imloviy lug‘atlarini tuzish uchun;

—Joylarni nomlashning ko‘p asrlik o‘zbekona an’analarini o‘rganish, mavjud nomlar orasidagi xalqning, jamiyatning didiga, davrning ehtiyoj va talablariga javob bermaydigan ba’zi nomlarni aniqlash va ularni almashtirish choralarini ko‘rish uchun foydalanish mumkin.

Demak, toponimlarni yig‘ish, to‘plash va ma’lum bir tizimga solish ancha jiddiy muammolardan biri ekan, bugungi kunda ona Vatanimiz hududidagi toponimlarning toponomik kartotekasini tuzish ham zarurdir.

#### **III.4. Nomlarning “Qizil kitobi”**

Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘quvchilar tomonidan to‘plangan toponomik materiallar ichidagi eng noyob nomlar joy nomlarining “Qizil kitobi” ni boyitishga xizmat qilish mumkin.

Joy nomlarining “Qizil kitobi” ma’lum hudud (Respublika, viloyat, tuman, shahar, vodi, mintaq)da uchraydigan toponimlar majmuida o‘zida

mujassamlashtiruvchi daxlsiz, rasmiy hujjatdir. Bunday kitobni tuzishdan maqsad xalqning uzoq o'tmishidan darak beruvchi hamda tarixiy, madaniy ahamiyatga molik bo'lgan nomlarni til, madaniyat va ma'naviyat yodgorligi sifatida asrash, ularni qonuniy va ilmiy yo'l bilan muhofaza qilishdan iboratdir.

E.Begmatov "Joy nomlari-ma'naviyat ko'zgusi" nomli kitobida joy nomlari "Qizil kitobi"ning mazmuni va tuzilishi, qanday bo'lishi mumkinligi haqida o'zlarining fikrlarini bildiradilar.

Joy nomlari "Qizil kitobi"ning mazmuni va tuzilishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

—Toponimlarning "Qizil kitobi" Respublikaning ma'muriy hududiy bo'linishini ifoda qiluvchi o'rinlar (viloyatlar, tumanlar, shaharlar) toponomiyasi bo'yicha (Masalan, "Xorazm viloyati toponimlarining qizil kitobi") yoki ma'lum mintaqalari, hududlar toponomiyasi bo'yicha ("Farg'ona vodiysi toponimlarining qizil kitobi") "Janubiy O'zbekiston toponimlarining Qizil kitobi" kabi yoxud umumrespublika hududi toponimlarining majmui bo'yicha ("O'zbekiston toponimlarining Qizil kitobi") tuzilish mumkin.

— Nomlar kitobda qat'iy alifbo tartibiga solingan ro'yxat tarzida uyushtiriladi.

— Har bir nom qisqacha tavsiflanadi (nom qanday o'rin, joy yoki obyektning nomi ekani, obyektning joylashish o'rne, nomning shakli variantlari va boshqalar).

—Toponimlar "Qizil kitobi" da ma'lum mavzuiy tasniflar asosida ham berilish mumkin. Bunda nomlar muayyan mavzuiy guruhlariga ajratilgan holda joylashtiriladi (masalan, qishloq va ovul nomlari, mahalla va guzar nomlari, ko'chalar nomi, maydonlar nomi, ariqlar nomi kabi). Bunda ham nomlar har bir mavzu, guruh ichida alifbo tartibida joylashtiriladi va tegishli izohlar bilan ta'minlanadi.

—Nomlar kitobda nom mansub bo'lgan hududda yashovchi aholining mahalliy tili (sheva va lahjada) qanday shakl va talaffuzda uchrasa, o'sha shaklda yoki an'ana tusiga kirgan umum-adabiy shaklda yoziladi (Xo'qand

emas, Qo‘qon, Toshkan emas Toshkent kabi).

—Toponimlarning “Qizil kitobi” mutaxassis nomshunoslar yoki alohida tashabbuskor shaxslar, ilmiy markazlar, jamoalar, viloyatlar, tuman, shahar, toponomiya komissiyalari tomonidan tuziladi. Nomlarning materialini to‘plashda o‘rta va oliy maktab o‘quvchilari, o‘qituvchi va talabalarini boshqa xil jamoa tashkilotlari, uyushmalar, ko‘ngilli jamiyat a‘zolarini, o‘lkashunoslarni ham jalb qilish mumkin.

— Nomlarning “Qizil kitobi” tegishli hududda yashovchi aholining muhokamasidan, maxsus ilmiy ekspertizadan o‘tgach tegishli hududning toponomiya komissiyasi tomonidan ma‘qullanadi va xalq deputatlari viloyat (tuman, shahar) kengashida muhokama qilinib tasdiqlanadi.

— “Qizil kitob”dan o‘rin olgan nomlar xalqning tarixiy-madaniy va lisoniy yodgorligi maqomiga ega bo‘ladi va davlatning tegishli qonunlari tomonidan muhofaza qilinadi.

—Toponimlarning “Qizil kitobi” ga o‘zboshimcha o‘zgartirishlar kiritish, unga kirgan nomlarni asossiz o‘zgartirish va yo‘qotishga harakat qilish ushbu daxlsiz hujjatning rasmiy huquqiy kuchini inkor qilish va mensimaslik qonun bilan tegishli ravishda jazolanishi kerak.

Joy nomlarining “Qizil kitobi” gi birinchi navbatda o‘zbek xalqining tarixi va tilining madaniy, lisoniy yodgorlik maqomiga ega bo‘lgan qadimiy tarixiy nomlar, shuningdek, turli sabablarga ko‘ra noo‘rin yo‘qotilgan, ammo qayta tiklash lozim bo‘lgan tarixiy nomlar hamda joylarning zamonaviy nomlari kiritiladi. Tarixiy va madaniy ahamiyatga molik nomlarga, birinchi navbatda quyidagilar kiradi:

— Joyning tabiiy-jo‘g‘rofiy holatini bildirgan xalqona nomlar: Toshloq, Chuqursoy, Balandtepa, Oqtepa, Qorasuv, Sho‘rbuloq va boshqalar.

— Joyning o‘ziga xos alohida belgisi, xususiyatini bildiruvchi nomlari: Yakkatut, Beshiktepa, Qizilqir, Qatorol.

— Xalq o‘tmishining turli tarixiy bosqichlari va ularga xos xususiyatlar haqida ma‘lumot va xabarlarni tashiydigan nomlar, Xonobod, Beklik, Amirtepa,



Darxon, Boyqo'rg'on.

— Biron-bir tarixiy yoki favqulodda voqea-hodisa haqida xabar beruvchi nomlar: Qizketgan, Amirqochgan.

— O'zbek xalqining urug' va qabilalari nomi bilan atalgan joy nomlari, shuningdek, aholining o'tmish davrlardagi ko'chishi (migratsiya) jarayonlarini ifoda qiluvchi nomlar: Do'rmon, Qarluqxona, Saroyqishloq, Jaloyir, Qipchoqovul.

— Xalqning an'anviy hunarmandchiligi, o'tmish davrlar xo'jaligi, moddiy turmushi haqida xabar beradigan tarixiy nomlar: O'qchi, Temirchi, Taqachi, Bo'zchi, Piyozchilik, Ohakchi.

— O'zbek tilining uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'zida ifoda qiladigan, hozirda qo'yilish asoslari va ma'nosi unutilgan nomlar: Samarqand, Qo'qon, Andijon, Xiva, Piskent, Parkent kabi.

— Xalqning ardog'iga sazovor bo'lgan mashhur tarixiy shaxslar bo'lgan tarixiy shaxslar nomiga qo'yilgan toponimlar: Navoiy shahri, Navoiy ko'chasi, Bobur mahallasi, A.Qodiriy ko'chasi, Beruniy maydoni va boshqalar.

— Kishilarning istaklari, orzu-umidlarini ifoda qiladigan ba'zi yangi nomlar: Hurriyat, Mehnatobod, Tinchlik, Mustaqillik maydoni, Istiqlol mahallasi.

— Shahar hududida joylashgan tabiiy-jo'g'rofiy obyektlar, inson mehnati bilan barpo qilingan turli makonlarning (ko'chalar, shox ko'chalar, boshi berk ko'chalar, chorrahalar, xiyobonlar, maydonlar, bog'lar, istirohat bog'lari, mahallalar, dahalar, guzarlar va boshqalar) nomlari.

— O'rin, joy tushunchasini ifoda qiladigan ba'zi tarixiy, madaniy, diniy obyektlar va makonlarning (qal'alar, qo'rg'onlar, devorlar, qarorgoh va o'rdalar, saroylar, karvonsaroylar, madrasalar, masjidlar, qabrlar, qabristonlar, shuningdek, milliy-madaniy ahamiyatga molik bo'lgan zamonaviy inshootlar, ansambllar turkumi va boshqalar) nomlari.

— Yerning tuzilishi (relyef) xususiyatini (balandlik, pastlik, tekislik) ifoda qilingan tabiiy-jo'g'rofiy o'rinlar (tog'lar, qirlar, tepalar, devonlar, sang'irlar, tog' tizmalari, cho'qqilar, qoyalar, adirlar, yaylovlar, o'tloqlar, vodiylar, jarlar,

jarliklar, gʻorlar, oʻyiqlar, pasttekisliklar, sahrolar, choʻllar va boshqalar) ning atoqli otlari.

— Fanda gidronimlar deb yuritiladigan suvliklar bilan aloqador boʻlgan tabiiy hamda sunʼiy obyektlar (dengizlar, daryolar, irmoqlar, soylar, ariqlar, quduqlar, buloqlar, hovuzlar, koʻllar, havzalar, suv omborlari, toʻgʻonlar, tegirmonlar, sharsharalar, orollar, yarim orollar, kechuvlar, quruqliklar, botqoqliklar, va boshqalar) ning tarixiy nomlari va boshqalar.

Joy nomlarining “Qizil kitobi” viloyat, tuman, shahar toponimiya komissiyalarida saqlanadi. Uning bir nusxasi Respublika toponimiya komissiyasiga yuboriladi. Lozim topilganda “Qizil kitob”ni koʻp nusxada nashr etish, unga kirgan nomlar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilishi mumkin.

Bob yuzasidan umumiy xulosalar:

1. Sinfdan tashqari ishlar umumiy taʼlim tizimining tarkibiy qismidir. Respublikamizda umumiy taʼlim-tarbiya talablariga koʻra, maktab oʻquvchilarining deyarli hammasi sinfdan tashqarigi ishlarga jalb etilishi kerak va bu tadbirlardan oʻquvchini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirishning muhim vositasi sifatida foydalaniladi. Shuning uchun ushbu bobda umumtaʼlim maktablarida sinfdan tashqari ishlarning umumiy xususiyatlari xususida, soʻngra esa sinfdan tashqari ishlarda onomastik materialdan foydalanish masalalari toʻgʻrisida toʻxtaldik.
2. Onomastik materiallarning kishilar turmushi, shuningdek, maktab taʼlimidagi har bir fan bilan tabiiy ravishda bogʻliq ekanligi; onomastik materiallarning juda rang - barang hamda qiziqarli boʻlganligini eʼtiborga olsak, atoqli otlar borasidagi bilimlarni egallashga boʻlgan oʻquvchilarning intilishi hamisha kuchli boʻladi. Sharoitning oʻzi ona tili va adabiyoti oʻqituvchisi oldiga tilshunoslik boʻyicha toʻgarak tashkil qilishdek hayotiy, oʻta zarur va muhim vazifani qoʻyadi. Onomastik toʻgaraklarning tashkil qilinishi esa dars samaradorligini oshiradi.
3. Oʻzbek adabiy tilini puxta egallagan madaniyatli kishilarni tayyorlash— barcha taʼlim sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Uni muvaffaqiyatli hal

etishda o‘zbek tili o‘qitishni hozirgi kun talablari darajasiga ko‘tarish muhim ahamiyatga egadir.

## UMUMIY XULOSALAR

1. Onomastika – atoqli otlarni har tomonlama o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Onomastika, yuqorida aytganimizdek, atoqli otlarni to‘plash bilan, ularning kelib chiqishi hamda taraqqiyoti, shakli, mazmuni va grammatik tuzilishini tadqiq qilish bilan shug‘ullanadi. Tilshunoslikning onomastika sohasining rivojlanishi qator ma’naviy-ma’rifiy yo‘nalishlarini ochib beradi.

2. Respublikamizda onomastika sohasida olib borilgan tilshunoslik tadqiqotlari, uning natijalari ta’lim-tarbiyaviy ishlarda, ma’naviy madaniyatimizni, milliy qadriyatlarimizni e’zozlashda qanchalik katta ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

3. Har bir hududning milliy, iqtisodiy, tabiiy xususiyatlari haqida uning onomastik nomlariga qarab ham tasavvur qilish mumkin. Chunki bu nomlar asrlar davomida yaxshi- yomon kunlarni muhrlash uchun xalqning yuragidan chiqqan so‘zlardir.

Ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini aks ettiruvchi bunday onomastik nomlarni ilmiy o‘rganish, xalq ta’limida uni avlodlarimizga yetkazish, yangi davrning birdan-bir da’vatidir. Sohani oliy o‘quv yurti ta’lim darajasida o‘qib-o‘rganib, to‘plangan materillarni tahlil qilish asosida shunday xulosalarga keldik:

— Umumta’lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, shuningdek, oliy o‘quv yurtlarida ham onomastika yo‘nalishidagi ta’lim o‘zining rasmiy kafolatini haligacha to‘la topmagan, vaholanki, bunga ehtiyoj juda katta.

— O‘quv muassasalari va o‘quv yurtlarida onomastikaning ta’lim-tarbiya bo‘yicha maxsus ta’lim dasturi, o‘quv rejasi, shuningdek, ma’lum bir mukammal darslik, qo‘llanmalar ham yo‘q hisobida.

— Onomastik ta’lim-tarbiyaning metodik-uslubiyat tomonlari aks etgan mukammal ishlagan qo‘llanmalarini ham topa olmaysiz.

— Bo‘lg‘usi o‘zbek tili va adabiyoti hamda tarix mutaxassisi zamonamiz uchun eng zarur bo‘lgan tilshunoslik fanlari sohalaridan biri onomastika

fanining ilmiy-nazariy xulosalaridan xabardor bo'lishi, mamlakatimizda bu borada to'plangan ma'lumotlarni bilishi, shuningdek, bu boradagi davlat siyosati dasturi amal qilib olinishi zarur.

— Bizning kuzatishimizcha, ona tili dasrlarida ham onomastik materiallarni o'quvchilarga tanishtirishga imkoniyat katta. Ayniqsa, leksikologiya bo'yicha atamalarning paydo bo'lishini tushuntirishda, so'zlarning etimologiyasini aniqlashda, so'z turkumlaridan otni o'tishda ham ularning atoqli otlarini o'rganishga duch kelamiz. Bunda o'qituvchi matnda uchragan notanish joy nomlarini ilmiy asoslab, sodda usullarda tushuntirib bersa, maqsadga erishilgan hisoblanadi (bu haqda ishning asosiy qismida gapirilgan).

— Adabiyot darslari ham onomastik materiallarni o'rganish uchun eng qulay imkoniyatdir. Adabiyot tarixini o'rganganimizda turli manbalar bilan tanishamiz (M.Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Z.M. Bobur, Gulxaniy va boshqalar). Bunday o'zbek adabiyoti namoyandalarining asarlarida juda ko'p nomlar tilga olinadi. O'qituvchi shu nomlarni hozirgi paytdagi nomlar bilan sharhlab tushuntirmasa, ta'lim dasturi talabini bajarmagan hisoblanadi.

O'qituvchi ta'lim dasturi talablarini nazarda tutib, o'qish-o'qitishning ana shu jihatlariga katta e'tibor berishi lozim.

— Tarix (o'lkashunoslik ) fani yangi avlodga o'z eli, yurtining barcha jihatlarini yer-suvi, hududlari, xalqlari, madaniyati, borliq tabiati, ijtimoiy hayotini o'rgatuvchi fandir. Tarixning barcha manbalarida ko'pdan ko'p atoqli otlarga duch kelamiz. Bunda ham o'qituvchining vazifasi nomlarni tarixiy-tadrijiy qiyoslab tushuntirsa, tarix (jamiyatshunoslik, o'lkashunoslik) va jo'g'rofiy fanlarni o'qitish talab darajasida bo'ladi.

— Ta'limning asosiy jarayonlaridan biri sinfdan tashqari ishlardir. Qanday fan bo'lmasin uning natijalari hayotga, turmushga bog'lanmas ekan, uning samarasi bo'lmaydi. Shuning uchun tadqiqotimizning ikkinchi bobida sinfdan tashqari ishlarda onomastik ma'lumotlarni berish mumkinligi xususida gapirib, fan to'garaklari, ma'lum bir mavzularda suhbatlar, tanlovlar o'tkazish, toponomik ma'lumotlar to'plash, savollar majmuini tayyorlash, nomlarning

“Qizil kitob” ini tuzish va yurgizish bo‘yicha tavsiyalar berdik.

Umuman, mazkur ishimizda oldimizga qo‘yilgan muammo va maqsadlarni ta’lim-tarbiya olish jarayonida to‘plagan bilimlarimiz, hosil qilgan kasbiy malakalarimiz asosida yoritishga harakat qildik.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I Ijtimiy-siyosiy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз.- Тошкент: Ўзбекистон, 2017.
2. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. T:“Ma’naviyat”,2007.
3. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. – Тошкент: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.
4. Географик объектларнинг номлари тўғрисида. Ўзбекистон Республикасининг Қонуни // “Халқ сўзи”, 2011 йил 13 октябр, 198 (5365)-сон, 1-бетлар. № ЎРҚ – 303.

### II Asosiy adabiyotlar:

- 1.Бондалетов В.Д. Русская ономастика. М.: Просвещение,1983.– 224 с.
- 2.Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси. Библиографик кўрсаткич. – Наманган, 2008. – 168 б.
- 3.Бегматов Э. Номлар ва одамлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 52 б.
- 4.Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.
- 5.Бегматов Э. Исм чиройи. – Тошкент: Фан, 1994. – 152 б.
6. Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. Услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2011. – 117 б.
- 7.Қораев С. Топонимика. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти, 2006. – 320 б.
8. Ҳасанов Ҳ. Ўрта Осиё жой номлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1965. – 81 б.
9. Ҳусанов Н. XV аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари (1-китоб). – Тошкент: “Ёзувчи”, 1996. – 126 б.

### III Qo‘shimcha adabiyotlar

10. Абдурахмонов Ғ. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида. – Тошкент, 1999. – 88 б.
11. Абрамов М.М. Гузары Самарканда. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – 56 с.
12. Авлақулов Я.И. ўзбек тили ономастик бирликларининг лингвистик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.
13. Асланов А.С. Шофиркон тумани микротопонимиясининг лингвистик таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 26 б.
14. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. – Тошкент: Фан, 1985. – 104 б.
15. Караев С.К. Топонимия Узбекистана (социолингвистический аспект). – Ташкент: Фан, 1991. – 132 с.
16. Каримова Л. Ўзбек тилида топонимларнинг ўрганилиши. – Тошкент: Фан, 1982. – 96 б.
17. Бегалиев Н. Ўзбек этнонимлари тарихидан. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 92 б.
18. Бегимов О.Т. Жанубий Ўзбекистон топонимларининг ўзлашган қатлами. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 27 б.
19. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Қомуслар бош таҳририяти, 1991. – 208 б.
20. Мамедов М. Халқ номлари жой номларида. – Тошкент: Фан, 1981. – 48 б.
21. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи (Жанубий Ўзбекистон ҳудуди материаллари асосида). Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 26 б.
22. Дўсимов З. Топонимик индикаторлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. № 5. – Б. 71-74.



23. Дўсимов З. Топонимларнинг ясашиши масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти, 1980. № 2. – Б. 44-48.
24. Дўсимов З. Хоразм топонимлари. Тошкент. Фан. 1972.
25. Нафасов Т. Жанубий Ўзбекистон топонимиясининг этнолингвистик анализи. – Тошкент, 1985. – 84 б.
26. Нафасов Т. Ўзбек номномаси. – Қарши, “Насаф” нашриёти, 1993. – 156 б.
27. Нафасов Т. Қишлоғингиз нега шундай аталган? – Тошкент: Фан, 1989. – 100 б.
28. Нуритдинова Р.С. Ўзбек ономастикаси терминларининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2005. – 23 б.
29. Ономастика Узбекистана. Материалы республиканской научно-теоретической конференции (Гулистан, 27-28 мая 1987 г.). – Ташкент, 1987. – 92 с.
30. Ономастика Узбекистана. Материалы 2-республиканской научно-теоретической конференции (Карши, 14-16 сентября 1989 г.). – Ташкент, 1989. – 208 с.
31. Охунов Н. Антропотопонимика нима. - Тошкент, Ўзбекистон, 1984. – 28 б.
32. Охунов Н. Тил ва жой номлари. - Тошкент, Ўзбекистон, 1988. – 32 б.
33. Охунов Н. Топонимлар ва уларнинг номланиш хусусиятлари. - Тошкент, Фан, 1989. - 56 б.
34. Охунов Н. Жой номлари таъбири. - Тошкент, Ўзбекистон, 1994. - 86 б.
35. Орипов Ў.А. Нурота тумани макро ва микротопонимиясининг лисоний таҳлили. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2003. – 22 б.

36. Отажонова А. Хоразм этнотопонимлари.–Тошкент: Фан, 1997. – 129 б.
37. Ражабов Ў.Х. Топонимик индикаторларнинг функционал-семантик хусусиятлари. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 22 б.
38. Раҳимов С.М. Хоразм минтақавий антропонимияси. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 27 б.
39. Тиллаева М.Б. Хоразм ономастикаси тизимининг тарихий-лисоний тадқиқи (“Авесто” ономастикасига қиёслаш асосида). Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2008. – 26 б.
40. Турдибеков М.Т. Абулғози Баҳодирхоннинг “Шажарайи турк” асари ономастикаси. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 22 б.
41. Туробов А. Самарқанд этноним ва этноойконимлари. – Самарқанд: СамДЧТИ нашри, 2004. – 88 б.
42. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
43. Худойбергганов Р.Ю. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкени, 2008. – 26 б.
44. Шукуров А. “Ўзбек” атамасининг келиб чиқиши ҳақида. – Қарши: “Насаф” нашриёти, 2010. – 68 б.
45. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 26 б.
46. Эназаров Т. ”Ўзбекистон топонимикаси” номли махсус курсни ўқитиш методикаси. - Тошкент, Университет, 1999. - 80 б.
47. Эназаров Т. Топонимларнинг этимологик тадқиқининг илмий-назарий ва амалий-услубий асослари (Туркий топонимлар мисолида). И-китоб. - Тошкент, Университет, 2001. - 128 б.

48. Эназаров Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий асослари ва этимологик тадқиқ йўллари. Филол. фанлари доктори... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – 56 б.

49. Эназаров Т. Номшунослик масалалари (услубий қўлланма). – Тошкент: ЎЗМУ, 2010. - 110 б.

50. Юлдашев Д.Т. Жанубий Қорақалпоғистон топонимларининг тарихий-etimологик тадқиқи. Филол. фанлари номзоди... дисс. автореф. – Нукус, 2012. – 23 б.

51. Қурбонов Т., Худойбердиева М. Бадиий асарлардаги топонимларнинг лингвистик таҳлили ва излҳи масалалари. Монография. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2006. – 78 б.

52. Қораев С. Тошкент топонимлари. – Тошкент: Фан, 1991. – 64 б.

53. Хусанов Н. ХУ аср ўзбек ёзма ёдгорликлари тилидаги антропонимларнинг лексик-семантик ва услубий хусусиятлари (2-китоб). – Тошкент: “Ёзувчи”, 1997. – 134 б.

#### **IV Onomastik lug’atlar:**

54. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 104 б.

55. Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.

56. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 290 б.

57. Нафасов Т., Нафасова В. Ўзбек тили топонимларининг ўқув изоҳли луғати (мактаб ўқувчилари, коллеж ва лицей талабалари учун). – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – 87 б.

58. Ўринбоев Б., Холиқов О. Мактаб топонимик луғати. Самарқанд, 2004. – 92 б.

59. Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 204 б.

60. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2005. –240 б.

61. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. - Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2002. – 164 б.

#### **V Internet saytlari**

1. <http://www.yedu.ru> va <http://www.yedu.uz> – Ta’lim saytlari.
2. <http://www.yeqworld.ru> – adabiyotlarning elektron variantlari.
3. <http://ru.wikipedia.org> – erkin ensiklopediya «Vikipediya».
4. <http://www.prepodu.net> – adabiyotlarning elektron variantlari.
5. <http://www.twirpx.com> – adabiyotlarning elektron variantlari.
6. <http://www.ziynet.uz> – adabiyotlarning elektron variantlari.
7. <http://www.allpravo.ru> – adabiyotlarning elektron variantlari.